

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOZAROVA FERUZA G‘AYBULLAYEVNA

**SHARQ VA G‘ARB MADANIYATIDA AXLOQIY-ESTETIK
QARASHLAR DIALEKTIKASI (ABU HOMID G‘AZZOLIY VA IMMANUIL
KANT FALSAFIY TA‘LIMOTLARI MISOLIDA)**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (etika)

**FALSAFA FANLARI
DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI**

AVTOREFERATI

Toshkent-2024

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук(DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophical sciences(DSc)

Bozarova Feruza G‘aybullayevna

Sharq va G‘arb madaniyatida axloqiy-estetik qarashlar dialektikasi (Abu Homid G‘azzoliy va Immanuil Kant falsafiy ta‘limotlari misolida).....

Бозарова Феруза Гайбуллаевна

Диалектика этико-эстетических взглядов Запада и Востока (на примере философского учения Абу Хомида Газзали и Иммануила Канта).....

Bozaroza Feruza Gaybullayevna

Dialectics of the ethical and aesthetic views of the West and the East (on the example of the teachings of Abu Homid Gazzali and Immanuel Kant).....

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOZAROVA FERUZA G‘AYBULLAYEVNA

**SHARQ VA G‘ARB MADANIYATIDA AXLOQIY-ESTETIK
QARASHLAR DIALEKTIKASI (ABU HOMID G‘AZZOLIY VA IMMANUIL
KANT TA‘LIMOTLARI MISOLIDA)**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (etika)

FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI

AVTOREFERATI

Toshkent-2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.DSc/Fal43 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (fs-ik.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurmatova Mukarram Axmedovna

falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Agzamxodjayeva Saida Sobitxonovna

falsafa fanlari doktori, professor

Matkarimova Jamila Turdiyevna

falsafa fanlari doktori, professor

Samadov Aktam Rafiqovich

falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti. Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 1-qavat, 117-xona. Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU Ma'muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 236-46-55; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "___" _____ da tarqatildi.

(2018-yil "___" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I.Saifnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor

G.M.Shadimetova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa
fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'.G'.Tilavov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, f.f.d., dotsent

KIRISH (Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo‘layotgan global madaniy transformatsiyalar va ularning yoshlar tarbiyasiga axloqiy-estetik jihatdan ta’sirini falsafiy mushohada qilish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, Sharq va G‘arb madaniyatida axloqiy-estetik qarashlar dialektikasi falsafiy jihatlarini tadqiq etish yangi integratsiyalashgan yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, falsafiy tafakkur taraqqiyotida G‘azzoliy va Kant ta’limotlari bilan dialektika Sharqning ma’naviyat-axloqiy yuksalishni va G‘arbning ratsional axloqiy-estetik qarashlaridagi o‘zgaruvchanlikni aks ettiradi. Bu esa madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotni rivojlantirishga, madaniy borliqning hodisa-yu, jarayonlarini, qonuniyatlari, qarama-qarshiliklari, rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilish – inson axloqiy hatti-harakatlarini chuqur anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Dunyoda ilm-fan va texnologiyalarning intensiv rivojlanayotgani, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan hayot yengillashayotganiga qaramay insoniyat tushkunlik, tajovuzkorlik, axloqsizlik kabi ma’naviy-ruhiy inqirozlardan aziyat chekmoqda. Bu insonning o‘zining asl tabiatidan tobora uzoqlashayotgani ifodasi bo‘lib, zamonaviy inson uchun Abu Homid G‘azzoliy va Immanuil Kant axloqiy-estetik qarashlarida o‘z ifodasini topgan inson falsafasi o‘ziga xos vaksina sifatida xizmat qilib insonni o‘zini, o‘zligini anglashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan Sharq va G‘arbning axloqiy-estetik muloqotlarini o‘rganish global va madaniy integratsiyaning rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi. G‘azzoliy va Kant kabi mutafakkirlarning qarashlarida insoniyatning asosiy muammolari va ularni bartaraf etishning axloqiy-estetik yechimlari mavjudligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur buyuk mutafakkirlar sharq va g‘arb olamining madaniy xilma xilligini chetlab o‘tishga erishib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni faollashtiruvchi fundamental falsafasi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorining yaratilishi, yoshlarning kognitiv, shuningdek madaniy-axloqiy jihatdan yanada rivojlanishida, ularning “O‘zbek madaniyatining borliqdagi ifodasi” sifatida, milliy tiklanishdan milliy yuksalishida Sharq va G‘arb axloqiy-estetik asoslarining tadqiqi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu ma’noda, davlatimiz rahbari 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «O‘zbekiston tarixi, madaniyati va buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’rifiy merosini saqlash, ilmiy muomalaga kiritish, respublika va xalqaro miqyosda yanada ommalashtirish»¹, zaruratini ta’kidlagan. Zero, jamiyat va millatning ertangi kuni qanday bo‘lishi yoshlarning ilm-fandagi yutuqlari bilan birga, axloqiy-estetik madaniyatining yuksakligi darajasi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom

¹ «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi. «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili»da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi» da Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining «IV.Adolatli ijtimoiy siyosat yuritishi, inson kapitalini rivojlantirish» yo‘nalishidagi «Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonlari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish» nomli 51-maqsadi.

sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion goyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Sharq va G'arb madaniyatida axloqiy-estetik qarashlar dialektikasi masalalariga oid tadqiqotlar, xususan Abu Homid G'azzoliy va Immanuel Kant ilmiy merosi jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlari, jumladan, ICESCO (Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti), Al-Azhar islom tadqiqotlari akademiyasi, Sunna va nabaviy merosni o'rganish markazi, Malayziya Islomni anglash instituti, Oksford Universiteti Xalqaro tadqiqotlar Markazi, Buyuk Britaniyaning "Osiyo madaniyat, din va siyosat maktabi", Frankfurtdagi Tinchlik tadqiqotlari instituti, Fuqarolik jamiyatini ilmiy tekshirish markazi (Germaniya), Jorj Vashington universiteti, Markaziy Osiyo ilmiy tadqiqot markazi (AQSH), G'arbiy Ontario universiteti (Kanada), Markaziy Osiyo instituti (Fransiya), Xalqaro munosabatlar instituti (Shvetsiya), Qozon (Volgabo'yi) Fedral Universiteti (Tatariston), shuningdek, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston Respublikalaridagi ilmiy markazlarida, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi (O'zbekiston), Toshkent islom instituti (O'zbekiston), O'zbekiston Milliy universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Sharq va G'arb madaniy muloqoti jarayonini o'rganish asosida nafaqat milliy, balki umuminsoniy axloqiy tizimini takomillashtirish masalalar tadqiqi jahondagi ilg'or ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, YUNESKO, Bag'rikenglik ta'limi markazi (AQSH), Los-Andjeles Bag'rikenglik markazi (AQSH, Los-Andjeles), Diniy bag'rikenglik markazi (AQSH, Florida, Sarasota shahri), Prinston universiteti dinlarni o'rganish markazi (AQSH, Nyu Djersi, Prinston), Markaziy Yevropa universiteti qoshidagi dinlarni o'rganish Markazi (Vengriya, Budapesht), Novouralsk markaziy ommaviy kutubxonasi (Rossiya) kabi ilmiy tadqiqot markazlari va muassasalari faoliyatidan keng o'rin egallagan. G'arb va Sharq orasidagi madaniy muloqotning dialektik tabiati Abu Homid G'azzoliy va Immanuel Kantning axloqiy va estetik tamoyillarini solishtirish orqali o'rganilgan va ularning qarashlarining jamiyat normalari va individual rivojlanishga ta'siri ko'rsatilgan. G'azzoliy falsafasi ratsionalizm va intuitive bilimlarga urg'u bergan holatida Kant deontologiyasi kategorik imperativ, inson qadr-qimmatini va axloqiy burchga diqqatimizni qaratadi. Ushbu g'oyalar O'zbekistonda uchinchi renessans davridagi ma'naviy transformatsiyalar va rivojlanish jarayonlariga qo'llanilishi va ta'lim, axloq va bag'rikenglik orqali yoshlarning axloqiy va intellektual tarbiya jarayonlariga qo'llaniladi.

Sharq va G'arb madaniyatida axloqiy-estetik qarashlar dialektikasi masalalariga oid tadqiqotlar, xususan Abu Homid G'azzoliy va Immanuel Kant ilmiy merosini muntazam o'rganish, erishilgan natijalar monitoringini olib borish natijasida ijtimoiy fanlar: falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, dinshunoslik va h., shuningdek, oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat

kasb etib, yoshlar axloqiy-estetik madaniyatini yuksaltirishga bo'lgan ehtiyoj va e'tiborning ortib borayotgani nuqtai nazaridan, mazkur mavzuning muhimligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar har ikka mutafakkirning axloqiy qarashlarini, xususan G'azzoliyning sufiylik ta'siridagi ma'naviy qarashlarini va Kantning ratsional avtonomiyaga oid qarashlarini tadqiq etishgan bo'lsada, ularning axloqiy va estetik qarashlari orasidagi aloqadorlik o'rganilmaganicha qolmoqda. Garchi har ikki muallif ham estetik idrokning turli jabhalariga diqqat qaratsada, ularning turli madaniy va falsafiy tizimlar doirasida faoliyat olib borgani to'g'ridan-to'g'ri taqqiqlash ishlarini mushkullashtiradi.

Ushbu kesishuvlarni tahlil qilish uchun kross-madaniy metodologiyalar ishlab chiqishga katta qiziqish bildirilmoqda. G'azzoliyning ilohiy kosmologiyasi va Kantning transtsendental idealizmi turfaxil tizimlarni o'zida aks ettirib, bu ushbu tizimlar doirasida mavjud axloqiy va estetik g'oyalar o'zaro aloqadorligini o'rganishni qiyinlashtiradi. Tadqiqotlarda falsafa, dinshunoslik va estetika sohalarini birlashtiruvchi nisbatan fanlararo yondashuvning ishlab chiqilishi G'arb va Sharq tafakkurida go'zallik va ezgulik konsepsiyalari qanday ishlab chiqilgani bo'yicha tushunchalarimizni chuqurlashtirish imkonini beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi milliy madaniyatimizni tiklash va rivojlantirish masalalariga oid konseptual g'oyalar mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi².

G'arbda "Sharq va G'arb madaniyati"ni N.I. Konrad, N.Y. Danilevskiy, K.N. Leontyev, O. Shpengler, A. Toynbi, P.A. Sorokin, M.Uott, Ch.Byukenen, D.S. Lixachev, B.F. Ribakov, A.F. Losev, G.F. Aleksandrov, D.Bell, I.Masuda, V.Martin, E.Toffler;

G'azzoliy va Kant ijodini atroflicha o'rgangan olimlar qatoriga Abdusattor Shayx, Asrar Ahmadxan, Mahmud Hasan Channar, Aziz Rahim Sayfiy, Baxtiyor Bana, Muhammad ibn Zaynil Obidin kabi tadqiqotchilar bibliografik ma'lumotlarni taqdim etgan.

MDH doirasida G'azzoliy va Kant ijodini atroflicha o'rgangan olimlar qatoriga V.P. Vasilyev, I.P. Minayev, S.F. Oldenburg, F.I. SHerbatskiy, E.V.Barbashina, A.A.Tumanov, I.A.Batrakova, M.Y.Vasilyeva, A.M.Sologubov, YE.A.Sobolevalarni kiritish mumkin. Chunki aynan shu olimlar I.Kant falsafasining ilmiy-konseptual qarashlarini atroflicha yoritib berishga harakat qilganlar. M.N.Afasijev, YE.Y.Basin,

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.; Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza, 2016 yil 7 dekabr. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 48 b.; Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak / Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.; Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoaldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - B.488.

V.F.Asmus, M.K.Mamardashvili, V.S.Solovyev, A.V.Guliga, S.N.Mareyev, YE.V.Mareyeva va boshqalar aynan I.Kant estetik qarashlarini tadqiq qilgan.

O‘zbekistonda G‘arb va Sharq madaniy muloqotida G‘azzoliy va Kant axloqiy-estetik qarashlari dialektikasini o‘zida aks ettirgan maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan bo‘lsa-da, M.Xayrullayev³, O.Fayzullayev⁴, B.Iskandarov⁵, R.Nosirov⁶, M.Qodirov⁷, X.Aliqulov⁸, Q.Bo‘ronov⁹, A.Zoxidov¹⁰, M.Jakbarov¹¹, F.Fidayev¹², M.Nurmatova¹³, O.Nishonova¹⁴, E.Umarov¹⁵, A.Sher¹⁶, B.Husanov¹⁷, D.Fayzixodjayeveva¹⁸, M.Boltaboyev¹⁹, A.Saidov²⁰, shuningdek, B.Eshonjonov, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, D.Rahimdjanov, U.Alimov, D.Muratov, M.Alimova²¹ larning ilmiy tadqiqotlarida G‘arb va Sharq madaniyati, shuningdek, G‘azzoliy va Kantning falsafiy ta’limotiga oid muayyan fikrlar ilgari surilgan.

Yuqorida keltirilgan manbalar G‘arb va Sharq madaniy muloqoti, G‘azzoliy va Kant falsafiy ta’limoti, o‘ziga xos xususiyatlarining tahliliga bag‘ishlangan. Ammo, G‘azzoliy va Kant falsafasini o‘rganishda yoshlar kognitiv qobiliyatini rivojlantirishda,

³ Xayrullaev M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri. T. 1971. Xayrullaev M. Mirovovzreniya Farabi i yego znacheniya v istorii filosofii. –T. 1967. – B.51-67.

⁴ A.Fayzullaev. Problema‘ protivorechiya v trudax klaassikov yestestvoznaniya i filosofii Sredney Azii. –T. Fan. 1974.– B.64.

⁵ Iskandarov B. O‘rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy –siyosiy fikrning shakllanishi. –T. 1993. – B.79.

⁶ Nosirov R. Voprosi teorii poznaniya vo vzglyadax progressivno‘x mo‘sliteley Sredney Azii. –T. 1988. – B.121.

⁷ Kadirov M. Filosofskie vozzreniya i logika Mir Said Sharifa Djurdjani. –T. 1977. – B.52.

⁸ Alikulov X. Etcheskie mo‘litley Sredney Azii i Xorasana. –T. Fan. 1992.– B.121.

⁹ Q.Bo‘ronov. Tasavvuf falsafasi xususida. –T. 2000. – B.70.

¹⁰Zoxidov.A. Turkistonda o‘rta asr arab-musulmon madaniyati. –T. 1993. – B.67.

¹¹ Jakbarov M. IX-XII asr Movarounnahr falsafiy fikrida ijtimoiy ideal va komil inson muammosi. –T. 2000. – B.73.

¹² Fidaev F. Antichnoe filosofskie naslediya araboyazo‘chnoy nauki IX-XII vv. –T. 1993. – B.221.

¹³ Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi./Monografiya. –Toshkent: Universitet nashriyoti. 2009. – B.128.

¹⁴ Nurmatova M.A. Abdullaeva N.B. Axloqiy va estetik madaniyat. Toshkent 2013. – B.45.

¹⁵ Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – B.200.

¹⁶ Sher A. Estetika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.– B.365.

¹⁷ Sherov A, Husanov B., Umarov E. Estetika. – Toshkent: Universitet, 2007.– B.111.

¹⁸ Fayzixodjaeva D, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining mantiqqa oid qarashlarida isbotlash muammolari. T.1999.

¹⁹ Boltaboev M. Kant trassendental falsafasi. Toshkent, 1998.

²⁰ Saidov A. Immanuil Yeantning falsafiy-huquqiy merosi va zamonaviy yurisprudensiya. –Toshkent: «Niso-poligraf» ShK.2012.

²¹ Abdusattor Shayx. Al-Imam Al-Buxariy. – Damashq: Darul qalam, 2007. – B. 528; Asrar Axmadxan. Dostovernost’ xadisoiv: pereosmislenie kriteriev. Mejdunarodniy institut Islamskoy Misli. – Baku: Idrak, 2017.; Mahmoodul Hasan Channar, Azuz-ur-Rehman Saifee, Bakhtiyar Bano. “Academic contributions of The” Islamicus Habiba “// حول الحنفية جهود ونألفا تصنيفا بخاري ال لإمام الصحيح الجامع Bukhari Imam of Saheeh on Ahnaf international Journal of arabic and islamic research. Publisher: Habibia Research Academy, Habibia Islamic Institute, Karachi (Pakistan). 2018. Volume 2, Issue 1. – P. 55.; Muhammad ibn Zaynil Obidin. Al-Jame’ as-Sahih lil Imamil Buxariy va inayatil ummatil islamiya bi sharqan va g‘arban. –Bayrut: Darul bashairil islamiya, 2013. – B. 577. 2 Karl Brokkelman. Tarix al-adab al-arabiy. Abdulhalim Najjor, Sayyid Ya‘qub Bakr va Ramazon Abdutavvoblar Arab tiliga tarjima qilgan. – Qohira: Dor al-ma‘orif. 1959. J. 3. – B.178.; Fuad Sezgin. Tarixu-t-turosil-arabiy // Mahmud Fahmiy Hijoziy arabtiliga tarjimasini. 20 jildli. – Ar-Riyod: Jomiatu-l-imam Muhammad ibn Saud al-islamiya, 1991. J. 1. – B. 249. Jonathan A. C. Brown. Hadith: Muhammad’s Legacy in the Medievaland Modern World. Oxford: Oneworld Publication, 2009. Pp. XII. 308.; Scott C. Lucas. The Legal Principles of Muhammad B. Ismā‘īl Al-Bukhārī and Their Relationship to Classical Salafi Islam. Islamic Law and Society. Brill. Vol. 13, No. 3 (2006), pp. 289-324 (36 pages).; Issam Eido. Mohammed Tayssir Safi. Şaḥīḥ al-Bukhārī’s Criteria: An Epistemological Perspective. 2020, Ibn Haldun University Press. Pp. 93-142; Issam Eido. Ḥanafī’s Criteria of Ḥadīth Criticism: the Role of Islamic Legal Maxims: المعيار الحنفي لنقد الحديث. 40.Pp. والجزئي الكلي ومفهوم الشريعة أصول دور. جامعة السالمية العلوم كلية مجلة. 2020 Brinkmann. “Beer in Early Islam: A Ḥadīth Perspective”, in: The Arabist. Budapest Studies in Arabic No. 36 (2015), pp. 3-34.; Blecher, Joel / Brinkmann, Stefanie / Zaherinezhad, Ali (eds.): Hadith Commentary: Continuity and Change, – Edinburgh: Edinburgh University Press. 2021.

axloq va nafosat makonini yaratish ko'nikmasini hosil qilishda imkoniyat va afzalliklari, ya'ni ta'lim-tarbiyaviy xususiyatlari to'la ochib berilmagan. Shu bois ushbu tadqiqotda G'arb va Sharq madaniy muloqotida G'azzoliy va Kant axloqiy-estetik qarashlari dialektikasi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. O'zbekiston Milliy universiteti «Etika va estetika» kafedrasining «Etika nazariyasi va tarixi masalalari» hamda «Amaliy estetika va uning hozirgi zamon taraqqiyotidagi o'rni» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Sharq va G'arb madaniy muloqotida axloqiy-estetik qarashlar dialektikasi mohiyatini falsafiy tadqiq etish, shuningdek G'azzoliy va Kant ta'limotlarining O'zbekiston yoshlarining ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sharq va G'arb madaniy muloqoti mohiyati, invariant tuzulmasi, qonuniyatlari va axloqiy-estetik tafakkur rivojlanish tendensiyalarini nazariy-metodologik jihatdan tadqiq qilish.

Sharq va G'arb madaniyatini belgilovchi "eydos"lar va ularning axloqiy-estetik jihatdan o'zaro ta'sirini ochib berish;

Sharq va G'arb madaniy muloqoti dialektikasining falsafiy mazmun mohiyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik jihatlarini o'rganish, bu boradagi konsyeptual qarash va yondashuvlarni qiyosiy tahlil etish;

Musulmon Sharqi madaniyatida Abu Hmid G'azzoliy diniy-falsafiy qarashlarining tadrijiy taraqqiyotini, Immanuel Kant falsafiy ta'limoti G'arb madaniy sivilizatsiyasida tutgan o'rnini axloqiy-estetik ahamiyatini ochib berish;

Abu Homid G'azzoliy axloqiy ta'limotining rasional va irrasional xususiyatlarini, Immanuel Kantning rasional deontologiyasida axloqiy va tabiiy ezgulik imperativlari ahamiyatini asoslash.

Tadqiqotning obykti Musulmon Sharqi va Yangi davr G'arb madaniy muloqotida falsafiy tafakkur dialektikasini tadqiq etish tashkil qiladi.

Tadqiqot predmeti Abu Homid G'azzoliy va Immanuel Kant axloqiy-estetik qarashlarining o'zaro mutanosib jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning usullari Mavzuni yoritishda ilmiy-metodologik manbalarni tahlil etishda dialektik va kompleks yondashuv, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, o'zaro aloqadorlik, qiyosiy tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sharq va g'arb o'rtasidagi madaniy muloqot axloqiy-estetik tamoyillarga dialektik ta'siri qadriyatlar tizimi bilan bog'liq aksiologik va shaxsning har tomonlama intellektual, axloqiy, ijodiy va professional rivojlanishi bilan bog'liq akmeologik yondashuvlar jamiyatda qabul qilingan norma va me'yorlar asosida ochib berilgan;

Abu Homid G'azzoliy falsafiy ta'limotida aql va mantiq orqali haqiqatni izlashni aks ettirgan ratsionalizm va insonning ichki tuyg'ulari, intuitiv bilish va hissiy tajribalar muhim ahamiyatga ega irratsionalizm dialektikasi zamonaviy axloqshunoslik va nafosatshunoslikning bosh mezoniy tushunchalari orqali dalillangan;

Immanuel Kant deontologiyasida kategorik imperativ g'oyasi axloqiy xulq-atvorni erkin iroda etish, mas'uliyat, insonning o'zini qadr-qimmatini saqlashini qat'iy va

gipotetik imperativlarning shaxs ma'naviy takomilidagi ijtimoiy zarurati, nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan;

Global ma'naviy transformatsiyalar sharoitida G'azzoliy va Kant axloqiy-estetik qarashlari ijtimoiy tafakkurning integratsiyalashtiruvchi madaniy me'yorlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy identifikatsiya, o'zaro aloqa va kommunikatsiya ijtimoiy adaolat va tendlik mezonlari plyuralizm va determinizm asosida dalillangan;

O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda G'azzoliy va Kant falsafiy ta'limotlari misolida yoshlarda yuksak axloq, ilmsevarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirishda tarbiya bosqichlari hamda qat'iy imperativlarga xos konseptual masalalar ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Ta'lim va tarbiya uyg'unligi tamoyili asosida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ahloqiy-estetik madaniyatini yuksaltirish, madaniyatshunoslik, axloq, kasbiy axloq, estetikaga oid bilimlarni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Sharq va G'arb madaniyatida axloqiy-estetik qarashlarni tadqiq qilish va uni yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga oid taklif va tavsiyalar berilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya va u haqdagi resenziyalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati G'arb va sharq madaniy muloqotini chuqurroq anglab yetish asosida yoshlar axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirish muammolarni chuqur tadqiq qilish bo'yicha texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlash, yoshlar falsafiy va diniy bilimlarini yuksaltirishga doir OAV materiallarini tayyorlashda diniy soha vakillari bilan dunyoviy olimlar hamkorligini yo'lga qo'yish hamda tadqiqot maqsadi bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarning ta'lim-tarbiya jarayonida samarali qo'llanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Sharq va g'arb madaniyatida axloqiy-estetik qarashlar dialektikasi (G'azzoliy va Kant falsafiy ta'limotlari misolida)" mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Sharq va g'arb o'rtasidagi madaniy muloqot axloqiy-estetik tamoyillarga dialektik ta'siri qadriyatlar tizimi bilan bog'liq aksiologik va shaxsning har tomonlama intellektual, axloqiy, ijodiy va professional rivojlanishi bilan bog'liq akmeologik yondashuvlar jamiyatda qabul qilingan norma va me'yorlardagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi faoliyatida foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasining 2024- yil 13 – fevraldagi 02/05-10-son

ma'lumotnomasi). Natijalar O'zbekiston yoshlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida ta'lim va tarbiya olishlariga bag'ishlangan respublika targ'ibot ishlarining ilmiy saviyasi yanada boyishiga xizmat qilgan;

Abu Homid G'azzoliy falsafiy ta'limotida aql va mantiq orqali haqiqatni izlashni aks ettirgan ratsionalizm va insonning ichki tuyg'ulari, intuitiv bilish va hissiy tajribalar muhim ahamiyatga ega irratsionalizm dialektikasi zamonaviy axloqshunoslik va nafosatshunoslikning bosh mezoniy tushunchalariga oid ilmiy yangiliklaridan O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasiga qarashli Malaka oshirish markazi va uning mintaqaviy filiallarida imom-xatiblar va otinoyilar uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslari o'quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita 2024-yil 7-fevraldagi 02-02/02/1/326-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiya ilmiy natijalaridan diniy-ma'rifiy jarayonlarni o'rganishda, shuningdek, ta'lim muassasalari uchun uslubiy tavsiyalar ishlabchiqishga xizmat qilgan;

Immanuil Kant deontologiyasida kategorik imperativ g'oyasi axloqiy xulq-atvorni erkin iroda etish, mas'uliyat, insonning o'zini qadr-qimmatini saqlashini qat'iy va gipotetik imperativlarning shaxs ma'naviy takomilidagi ijtimoiy zarurati, nazariy va amaliy ahamiyatiga oid qarashlaridan O'zbekiston Islom sivilizatsiya markazi faoliyatida foydalangan (O'zbekiston Islom sivilizatsiya markazining 2024-yil 17-yanvardagi 08-17/29-son ma'lumotnomasi). Mazkur dissertatsiyaning ilmiy natijalaridan milliy-ma'naviy qadriyatlar Abu Homid G'azzoliy va Immanuil Kant ma'naviy merosidagi insonparvarlik, ilmsevarlik, axloqiy go'zallik fazilatlarini yoshlar tarbiyasida samaraliqo'llanma sifatida, metodik o'qishlarda, kataloglar, albomlar, ilmiy-amaliy materiallar bazasini yaratishda xizmat qilgan;

Global ma'naviy transformatsiyalar sharoitida G'azzoliy va Kant axloqiy-estetik qarashlari ijtimoiy tafakkurning integratsiyalashtiruvchi madaniy me'yorlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy identifikatsiya, o'zaro aloqa va kommunikatsiya ijtimoiy adaolat va tendlik mezonlari plyuralizm va determinizm asoslanishi borasidagi ilmiy xulosalar va amaliy takliflardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti" 41-bandi, "Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, Vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'usini kuchaytirish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil qilishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 4-mart 01/11-238-son ma'lumotnomasi). Natijada, Abu Homid G'azzoliy va Immanuil Kant ma'naviy merosi yoshlarning ijodiy va kasbiy faoliyatini boyitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, buzg'unchi g'oyalarga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, ruhiy va ma'naviy olamini boyitishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda G'azzoliy va Kant falsafiy ta'limotlari misolida yoshlarda yuksak axloq, ilmsevarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirishda tarbiya bosqichlari hamda qat'iy imperativlarga xos konseptual masalalarga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston televideniesining "Madaniyat va ma'rifat" kanalida 2019 yilda efirga uzatilgan «Bashariyat siymolari» ko'rsatuvining Olmoniya faylasufi Immanuil Kant ijodiga bag'ishlangan soni stenariysini tayyorlashda

foydalanilgan. Ko'rsatuv Immanuil Kant va Abu Homid G'azzoliy ta'limotining ratsional va irratsional dialektikasi bilan bog'lab yoritib berilgan. (O'zbekiston teleradiokompaniyasining 2024-yil 12-yanvardagi 02-11/11-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuv mutafakkirlar Immanuil Kant va Abu Homid G'azzoliy ma'naviy-axloqiy va falsafiy merosining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 3 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruzalar ko'rinishida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, 3 ta xorijiy va 10 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya muqaddima, 4 ta bob, 12 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan. Dissertatsiyaning hajmi 230 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Musulmon sharqi va yangi davr g'arb madaniyatini falsafiy tadqiq etishning nazariy-metodologik masalalari**» deb nomlangan birinchi bobida Musulmon sharqi va yangi davr g'arb madaniy muloqotida axloqiy-estetik qarashlarning dialektik mazmun mohiyati, Musulmon Sharqi madaniyatida Abu Homid G'azzoliy diniy-axloqiy qarashlarining tadrijiy taraqqiyoti, Immanuil Kant ijodida "Tanqidiy davr" rivoji falsafiy tahlil etilgan.

Bugungi kunda jahonda globallashuv tufayli sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar silsilasi butun insoniyat taqdirining o'zaro bir-biriga bog'liqligini anglash, Sharq va G'arb madaniyatlarining integratsiyasi va sog'lom muloqotini taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Sharq va G'arb madaniyatining tadqiqiga, insoniyat axloqiy-estetik ongi ibtidosi, tadrijiy rivojlanish tendensiyalari, o'zaro kesishuv nuqtalarini aniqlash nuqtai nazaridan yondoshganmiz. Shuni ta'kidlash kerakki, madaniyat – tafakkur jarayonlariga xos bo'lgan, insondagi insoniylik tamoyiliga immanent bo'lgan izlanish natijalarining majmui hisoblanadi. Madaniyatni rivojlantirishning muhim manbai, matritsasi sifatida ahamiyat kasb etadigan axloqiylik va go'zallikni namoyon qilish, aslida mavjudlikning uyg'unlik xotirasidir. Sharq va G'arb madaniyatida axloqiy-estetik qarashlar dialektikasi madaniy borliqning hodisa-yu, jarayonlarini, qonuniyatlari,

qarama-qarshiliklari va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilish va anglash – insoniylik mohiyatini chuqur anglash imkonini ham beradi.

Falsafiy refleksiya, Inson kim? Ezgulik va yovuzlik nima? Go'zallik va hunuklikchi? Hayotining mohiyati nimada? Borliq va yo'qlik nima? Asl muhabbat qanday bo'ladi, kabi metafizik savollar vositasida substansional bilish maqsadini qo'yar ekan, bunda Abu Xomid G'azzoliy va Immanuil Kant axloqiy-falsafiy, madaniy-estetik tadqiqotchilar sifatida namoyon bo'ladi. Inchunun, har qanday subyektning ijtimoiy-madaniy o'zligini anglash mohiyati – falsafiy bilishni stimullashtirish va tajribasini boyitishning muhim omillaridan bo'lib kelgan.

Tadqiqotda sivilizatsion yondashuv doirasida N.Ya.Danilevskiy²², O.Shpengler,²³ A.Toynbi,²⁴ S.Xantington,²⁵ P.A.Sorokinlar,²⁶ E.Toffler,²⁷ tomonidan ahloqiy madaniyat rivojining chiziqli tasavvuri hal qiluvchilik omili inkor etilgan. Ta'kidlash lozimki, har bir alohida madaniyat yaxlitlik sifatida tushuniladi va uning “boshqacha” bo'lishi asl qiymatini pasaytirmaydi, har bir etnos va millatning u mavjud bo'lgan “axloqiy-madaniy mintaqa”, zamon va makon jihatiga ko'ra ahamiyatli bo'lib, ideallashtiriluvchi yevropotsentrizmga bunda tanqidiy yondashilgan.

Ta'kidlash lozimki, sharq va g'arb axloqiy qadriyatlari qarama-qarshiligi shu vaqtgacha na rivojlanayotgan mamlakatlarni yevropalashtirish jarayonlarini, na gumanistik universalizmning sivilizatsion yutuqlarini va na o'z tabiatiga ko'ra qaytmas hisoblanuvchi umumiy integratsion jarayonlarni, shuningdek o'ziga xos globalistik dunyoqarash shakllanishiga to'sqinlik qila olmadi. Shu ma'noda, sharq va g'arb madaniy muloqotining axloqiy-estetik jihatlaridagi qarama-qarshilikni ham bartaraf qilib bo'lmaydi deb hisoblaymiz, aksincha bunday jarayondan samarali sivilizatsion natijalarga erishish pozitsiyasidan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotimiz orqali birinchidan, sharq va g'arb axloqiy-estetik borlig'ining ijobiy g'oyaviy dominantalarini, boshqa tomondan, zamonaviy madaniyatning ifodalanishidagi ziddiyatlarning ildizi va manbalarini aniqlash, ularning nazariy yechimini topish va yoshlar dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirish natijasida, ularda yuksak darajadagi – milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosidagi madaniyatini rivoj toptirish nuqtayi nazardan yondashildi.

Sharq va g'arb madaniyatini tadqiq qilishda dialektik tahlili madaniy-sivilizatsion, tarixiy-pragmatik, falsafiy (axloqiy-estetik) yondashuvlar asosida amalga oshirildi.

Sharq va g'arb madaniyatida dialektik aloqadorlik masalasiga tarixiy yondashuvda muayyan ijtimoiy-madaniy tajribalar xilma-xilligi va qarama-qarshiligida, subyektlarning tarixiy jarayonda bevosita o'zaro hamkorligi-birligini, amaliyotlari misolida ko'rish mumkin. Shu ma'noda, tarixiy jihatdan madaniy muloqot – o'ziga xos yaxlitlikdir. Ta'kidlashimiz lozimki, madaniy muloqotda zamonga oid funksional, timsoliy va mafkuraviy asoslar namoyon bo'lib, bu madaniy munosabat xarakterini, madaniy

²² Danilevskiy N.Ya. “Rossiya i Yevropa”. Tver: Izdat. dom “Bulat”, 2001. — 416 s.

²³ Shpengler O. Zakat Yevropy. Ocherki morfologii mirovoy istorii. M., 1993. — 265 s.

²⁴ Toyinbi A. Isledovaniye istoriy. Vozniknoveniye, rost i raspad sivilizatsiy. AST.: 2009.

²⁵ Xantington S. Kultura imeet znacheniyе. Moskovskaya shkola politicheskix issledovaniy. M.1999.

²⁶ Sorokin P. A. Prestupleniye i kara, podvig i nagrada: Sotsiol. etyud ob osnovnykh formax obshchestv. povedeniya i morali. SPb.: Izd-vo Rus. Xristian. gumanitar. in-ta, 1999. — 46 s.

²⁷ Toffler E. [Tretya volna](#). — M.: [AST](#), 2010. — 116 s.

almashinuv va hamkorligining shakl va usullarini belgilab beradi. Zero, Kant aytganidek, har bir davrda shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, ular, aynan, o'sha zamonning o'ziga xosligini belgilab, individual yondashuvni talab qiladi. Bu borada G'azzoliyning diniy masalalarga urg'u beruvchi tushunchalari bilan metafizika tanqidi o'z davridagi madaniy-ma'rifiy muhitdan kelib chiqilgan, bunda u qiyinchiliklarga duch kelganining sababini ham tushunish mumkin.²⁸ Shunday bo'lsada, bir tomondan G'azzoliy, ikkinchi tomondan Kant har jihatdan bir-biridan farq qiladigan, boshqa zamon va makonda yashab, ijod qilgan, lekin ular ikkisinining yoli bir maqsad – insonni ma'naviy kamolotga yetaklash maqsadi ustida kesishgan va inkorni inkor qilish asosida ma'rifatga xizmat qiluvchi axloqiy-estetik ta'limotlarini yaratganlar.

Kant istilohi bilan aytganda, transstendental dialektika cheksiz ziddiyatlar metafizikasi sohasi²⁹ sifatida tavsiflanadi va bu sohaga tegishli nuqtalar o'ziga xos ziddiyatli mantiq sifatida qaraladi. Bizning yondashuvimizdagi dialektika atamasi Platon va Gegel falsafalaridagi kabi mutlaq ma'noda emas, balki sofistlarda kabi qo'llanilishiga ko'ra evristik ma'noda tushunilishi maqsadga muvofiq. Bu yerda dialektikadan maqsad - ongda sodir bo'ladigan hodisani, uni tuzatish uchun va noto'g'ri tushunishning oldini olish uchun qollaniladi. Bizning dialektik yondashuvimiz orqali tezisning ham, antitezisning ham qarama-qarshiligi va birligini, ayni paytda har ikkisi ham mavjud bo'lishi mumkin ekanligini asoslash orqali axloq va nafosatning muayyan qirralari ochib beriladi. Arastu qo'llagan ma'nodagi dialektika atamasini, ilmiy farazlarga asoslangan fikrlardan aniq bilim olish san'ati sifatida ta'riflash mumkin. G'azzoliy ham qo'llagan bu usulni, hatto faylasuflarni tanqid qilishi ilohiyotshunoslik tabiatidan kelib chiqqan, chunki, ma'lumki teologik masalalarning barchasi falsafaga mos kelavermaydi.

Madaniyatshunoslik sohasida olib borilgan falsafiy tadqiqotlarda G'arb va sharq sivilizatsiyalari bir biridan ajratib o'rganilgan. Bunday bo'linish asosidagi yondashuv V.M. Naydish, A.S. Panarin, B.C. Stepin, V.N.Konrad kabi olimlar ishlarida kuzatiladi. Ularga ko'ra, G'arb deganda zamonaviy texnogen taraqqiyot namunasi (G'arb – “ideal namuna”, uning universal asoslari XV-XVII asrlarda Yevropada shakllanib, keyin Shimoliy Amerika, Avstraliyaga tarqaladi, XIX asrdagina sharqqa, xususan Yaponiyaga kirib kelib, butun sharq bo'yicha tarqaladi). Ta'kidlash lozimki, g'arbda ijtimoiy-axloqiy va estetik jihatlar va umuman ijtimoiy taraqqiyot jamiyatning moddiy, texnik-texnologik jihatlariga tayaniladi. Bunda sharq madaniyati – an'anaviy taraqqiyot turi bo'lib, tezlashib ketuvchi ijtimoiy taraqqiyot ongli ravishda inkor etiladi, asosiy e'tibor axloqiy-estetik jihatdan, ya'ni ma'nan yuksalishga qaratiladi.

Dissertatsiyada, sharqning dunyoga mashhur mutafakkirlaridan, yuqorida so'z borgan, kalom ilmi (fiqh, tafsir, hadis), shuningdek, falsafa va tasavvuf masalalari bo'yicha olamshumul ahamiyatga ega asarlar muallifi Abu Homid Muhammad G'azzoliy (1058-1111) ijodi shakllanishi tadqiq etilgan. G'azzoliy asarlari 1145-yildan boshlab Yevropa tillariga tarjima qilina boshlagan, masalan Dante³⁰, Albert Velikiy³¹, A. Mase,³²

²⁸ Gazâlî, Tehâfutu'l-Felâsife. thk. Süleymân Dünyâ, Kahire: Dâru'l-Maârif, 1972.

²⁹ Kant, Immanuel, Critique of Pure Reason, trans. Norman Kemp Smith, New York: Random House, 1948. P-81.

³⁰ Aligyeri Dante. Pir. Traktat chetyvortyy "Konsona tretya". Elektronnyaya biblioteka. RoyalLib.Com. Kontaktnyy e-mail: royallib.ru@gmail.com. Data obrasheniya 11.12.2020.

³¹ Velikiy Albert. Traktat pervyy. Ob intellekte i intellegibelnom. S.71. Elektronnyaya biblioteka. RoyalLib.Com. Kontaktnyy e-mail: royallib.ru@gmail.com. Data obrasheniya 11.12.2020.

Gegel³³ uning axloq va ruh haqidagi qarashlariga sharhlar bergan. Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti ildizlarini o'rganishda sharq va g'arb tajribasini birgalikda olib borish zarurligi haqida T.J.Uinter: "Bizga yangi mingyillikda mujaddid, mo'tadil, bag'rikeng, ruhoniyl nazarga ega dunyoviy tafakkurni tanqid qilibgina qolmasdan, uni tushunadigan va u bilan bahsga kirisha oladigan daho G'azzoliy kerak"³⁴, deb yozgan.

Manbalarda G'azzoliyning bor yo'g'i 53 yil umr ko'rganligi qayd etiladi. Ammo, u shu qisqagina umri davomida yuzga yaqin nodir asarlar yozib qoldirgan. Afsuski ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan. O'zbekistonda yetib kelganlarini, arab, fors, turk tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari oxirgi besh yillikda faollashgan. Ular falsafa, fiqh, e'tiqod, axloq kabi turli masalalariga ta'luqli bo'lib, dalillar qamrovi jihatidan juda katta miqyosga ega. Masalan, faqihlar, ya'ni huquqshunoslar G'azzoliyning "Bosit", "Vojiz" kabi asrlaridan; tafsirchilar, kalom ilmining olimlari "Qavoid al-Aqoid", "Ar-Risolat al-Qudsiya", "Al-Iqtisod fi'l-e'tiqod" singari kitoblaridan; faylasuf va tasavvufshunoslar "Maqosid al-falosifa", "Tahofut ul-falosifa" ("Faylasuflarni rad etish"), "Kimyoi saodat" ("Saodat kimyosi"), "Ihyo ulum ad-din"(diniy ilmlarni tiriltirish) kabi asarlarida falsafiy ihtiloflar masalasi islom ilohiyoti nuqtai-nazaridan ma'lum bir tizimga solingan, haqiqat oshiqslari uchun "Ihyo ulum ad-din" nomli buyuk asarlaridan bahramand bo'lib, katta ruhiy kuch – ma'naviy yuksalishni boshidan kechiradilar. Musulmon olamida "Hujjat ul-Haq", "Mufassil al-Hilof", "Qavosim al-Botiniya" kabi asarlari insonlarning kundalik hamrohiga aylangan.³⁵

G'azzoliy yozishicha, yoshligidan qalbida haqiqatga tashnalik hissi borligi uchun qo'rqmasdan o'zini tubsiz ilm ummoniga tashlagan, ya'ni har bir ilmni dadillik bilan o'rgana boshlagan. "Al Munqiz minaz zalol" (Gumrohlikdan qutulish) kitobida: "Kalom ilmidan nima oldim, ahli ta'lim (ismoiliya mazhabi) va imomga taqlid qiluvchilar haqiqatni anglashdan qusurli va ojizdirlar, qanday nafrat paydo bo'lganini aytay. Va falsafa to'qish shevasini arzimasi, deb bilganim va tasavvuf tariqatini qanday afzal bilganimni aytay"³⁶. Olim har bir toifaning aqidasiini yaxshilab tafakkurdan o'tkazgan va qoniqmay yana yangidan o'rgana boshlagan. G'azzoliyning fikricha, ilm ikki xil bo'ladi. Biri - taqlidiy ilm, ya'ni o'tmishdan meros qolgan, ota-ona va ustozlardan olinadigan bilimlar. Ikkinchisi - kashf etilgan ilm. Taqlidiy ilm ko'r-ko'rona ergashish bilan bo'ladi, kashf etilgan ilm esa har bir shaxsning qobiliyati, shuuriy izlanishi orqali qo'lga kiritiladi.

Darhaqiqat, G'azzoliy maqsadi amrlar haqiqatini kashf qilish bo'lgan. Chunki, hayotda juda ko'p odamlar taqlidiy bilimlar bilan qanoatlanadilar. Yangilik yaratmay, tayyor hunarlar, ilmlarni o'rganib, ko'p qatori yashaydilar, bu yashashning eng oson turi. Ammo taraqqiyot uchun, insoniyat tafakkurini olg'a siljitish uchun ilohiy va dunyoviy haqiqatlarni, mohiyatlarni izlash, kashf etish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Bu ayrim buyuk shaxslarning nasibasi. Ilm sohasida buyuklik xislati bo'lgan Abu Homid G'azzoliy haqiqat tolibi bo'lib, avval kalom ilmini, so'ngra falsafani va oxiri tasavvufni o'rganishga kirishgan. U ilmi kalom, falsafa haqida bir nechta kitob yozadi. Olim

³² Mase A. Islam. M., 1961. S.165.

³³ Gegel G.F.V.Soch v XI: Leksii po istorii filosofii.Minsk.1973.S.241.

³⁴ Uinter T.J. Islam v XXI veke. –M., Prosvetsheniye. 2005. –S.25.

³⁵ Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafat – ul qulub.Toshkent:"Yangi asr avlodi". 2004.-B.6

³⁶ G'azzoliy Abu Homid. "Al-munqiz minaz-zalol". Bayrut. "Dorul kutubil ilmiyya". 1995. –B.16.

shunday xulosaga keladiki, ilmi kalom ham, falsafa ham ilohiy haqiqatlarni to'liq anglash uchun yetarli emas. Shuningdek, mutakallimlar o'z aqidalarini chuqurlashtirish uchun javhar va araz masalalarida bahs boshlab, falsafaga qo'l urgan bo'lsada, lekin ular ilmining maqsadi boshqa bo'lgani sababli ularning so'zi nishonga yetmadi va odamlar orasidagi shak-shubhalarni bartaraf qilolmadilar.

G'azzoliy bilan ro'y bergan hodisa yagona holat emas, ko'pgina donishmandlar, din olimlari uchun xos yo'l edi. Chunki tafakkur ahlining aksari oxir oqibatda tasavvufga kelib to'xtaganlar. Boyazid Bistomiy, Yusuf Hamadoniy, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshbandlar boshida hadis ilmining ulamolari edilar, keyin qoniqmay tasavvufga yuzlanganlar.

Dissertatsiyada, Olmon mumtoz falsafa asoschilaridan biri bo'lgan Kant falsafiy qarashlari zamonaviy g'arbiy Yevropa tafakkurining shakllanishida asos bo'lib xizmat qilgani yoritilgan. Bunda Kant izlanishlarini quyidagi savollar doirasida olib borgan:

Men nimani o'rganishim mumkin?

Nima qilishim kerak?

Nimaga umid qilishim mumkin?

Inson nima? Birinchi savolga metafizika, ikkinchisiga - axloq, uchinchisiga - din, to'rtinchisiga - antropologiya javob beradi, deb aytgan. Ammo antropologiyada hamma narsani umumlashtirish mumkin, chunki birinchi uchta savol javob oxirgisida mujassamdir.

Sof aql antinomiyalarida Kant spekulativ kosmologiya xulosalarini qayta ko'rib chiqadi. Unga ko'ra, spekulativ kosmologiyada olam haqida – hodisalarning sabab va oqibat uzviy aloqadorligida amal qiluvchi hodisa sifatidagi qarash hukmron. Shuning uchun spekulativ kosmologik olam haqidagi bilimlarini sintetik aprior holatlar majmui sifatida kengaytirishga harakat qilgan. Aynan shu holat *antinomiyalarga* tegishlidir. Antinomiyalar ikki qarama qarshi xulosalarning har ikkisi ham isbotlanishi mumkin bo'lgan holatlarga aytiladi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, spekulativ kosmologiya antinomiyalar mahsuli sifatidagi fan ekan, biz olamning transsendental g'oyasini hodisalar majmui sifatida qaray olmaymiz.³⁷

Kant tomonidan bu antinomiyalar yechilishi, u tomonidan fenomenal va noumenal olamlarni farqlashiga asoslanadi. Moddiy olam qonuni sifatidagi transsendental erkinlik tushunchasi – mutlaq Borliqni asos soluvchi ekanligini inkor qilmagan bo'lar edi; sababiy olamning asoslarini umuman olganda qo'llab-quvvatlar edi. Fenomenal olamda "intuitsiya" va "tushunish" shakllarining global miqyosda o'zaro hamkorlikda bo'luvchi inson bilimi g'oyasini himoya qilish Kant arxitektonikasida istisno qilib bo'lmaydigan masala edi. Bizningcha, bu Kant metodologiyasini tushunish, birinchi va ikkinchi "Tanqid"lari ma'no-mazmunini anglash uchun shuningdek, G'azzoliy va Kant ilgari surgan qarashlarni ajrata olish nuqtayi nazaridan juda muhim jihatdir.

Ya'ni demoqchimizki, Kantning G'azzoliy falsafiy ta'limoti bilan aloqador bo'lgan asosiy jihati, uning metafizika yo'li orqali etika muammolariga javob izlaganida, shu sababli nemis faylasufining metafizika haqidagi tasavvuri bilan tanish bo'lmay turib, uning axloqiy nazariyasini tushunib bo'lmaydi, deb hisoblaymiz. Uning spekulativ metafizikani tanqid qilishi esa amaliy falsafiy-axloqiy ta'limotining yaratilishiga,

³⁷ Koplston. Ukaz.soch., tom 6. Str 212, 216. Tezisy i antitezisy v antinomii.

keyinchalik Yevropa falsafiy tafakkuri rivojida tamal tosh sifatida hizmat qilgan. Kant qarashlari I. F. Gerbert, S. Maymon, G. Kogen, P. Natorp, V. Vindelband, G. Rikkert, G. Feyxinger, E. Kassirer, E. Gusserl, M. Xaydegger, Ch. S. Pirs, L. Vitgenshteyn, K. O. Apel, P. Stroson, U. U. O. Kuaynlar va boshqalarga kuchli ta'sir qilgan.

Dissertatsiyaning **G'azzoliy va Kant falsafiy qarashlarining axloqiy asoslari** nomli ikkinchi bobida Abu Homid G'azzoliy axloqiy ta'limotining ratsional va irratsional xususiyatlari, Immanuil Kant ratsional deontologiyasida gipotetik va qat'iy imperativlar, G'azzoliy va Kant axloqiy qarashlarida mutlaqlik va nisbiylik dialektikasi kabi masalarni tadqiq qilishga harakat qilganmiz.

G'azzoliy axloqiy ta'limotida axloqiy bilim kelib chiqishiga ko'ra, mustaqil aqldan emas, u butunlay naqldandir, deb hisoblangan. Mutafakkir ko'p bor axloqni aql yordamida bilinishi mumkinligini inkor qilgan.³⁸ Shuningdek, u inson hatti-harakatlarida sababiylik qonuniyatini zaruratini inkor etgan.

Nazarimizda, G'azzoliyning inkori uning sababiylik qonunini qabul qilinishidan havotirga tushishi bilan bog'liq bo'lgan. Chunki uning fikricha, tabiat yoki axloqda mazkur sababiylik qonunini qabul qilishimiz natijasida Xudoning mutlaq qodirligini inkor qilishga kelib qolish mumkin. Tarixiy jihatdan oladigan bo'lsak, bunday havotiriga sabab falsafadagi muayyan g'oyalar. Darhaqiqat, falsafada diniy va Qur'oniy tamoyillarga qarshi ayrim fikrlar keltirilganiga guvoh bo'lamiz.

G'azzoliyning bilish nazariyasiga oid qarashlari falsafiy ilmlari boshqa fanlar uchun ham qimmatlidir. Olim fikricha, tasavvuf ahli turli hol maqomlarida boshqalar yuz yilda erisholmagan bilimlarga bir necha lahzada erisha oladilar. Uning qarashlarining in'kosini boshqa allomalarda ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, O'rta asr mutafakkirlari Forobiy va Ibn Sino fikrlari bilan G'azzoliy fikrlari hamohang ekanligi bilinadi. Keyingi davr faylasuflari Forobiy va Ibn Sinoga uni qarshi qo'ygan. Lekin bizning zamondoshlarimiz, agar Forobiyning "Arou ahli madinatul fozila" ("Fozillar shahri ahlisining qarashlari" yoki qisqarog'i "Fozil odamlar shahri"), Ibn Sinoning "Risolai fil-ishq", "Hayy ibn Yaqzon", ("Uyg'oq o'g'li Tirik") va boshqa falsafiy asarlarini taqqoslab ko'rsalar, bu allomalarning qarashlari bir-birlariga zid emas, balki ohangdosh ekanligini tushunib yetadilar. Jumladan, Forobiy va Ibn Sino ham, G'azzoliy ham ruh kamoloti bosqichlari haqida fikr yuritib, o'simliklar ruhi, hayvonot ruhi, insoniy ruh, farishtalar ruhi va ilohiy ruhni farq qiladilar. Bu uchala donishmand hayvoniy ruhdan insoniy ruhga ilm-ma'rifat, mashaqqat chekish bilan dilni hayvoniy istak, mayllardan tozalash, poklash bilan yetish mumkinligini, ya'ni ma'naviy kamolot yo'llarini ko'rsatadilar.³⁹ Insonni ma'naviy borlig'i, xususan nafs haqidagi fikr-mulohazalarini qadr-qimmatini va bugungi kunda ahamiyatlidir.

G'azzoliyning falsafiy qarashlari asosan ana'naviy sunniylik va sufiylik ideallari bilan uyg'unlashtirilgan holda ta'riflangan. Islom falsafasiga ko'ra, qachonki odamlar hayotda to'g'ri yo'ldan adasha boshlasalar payg'ambarlar kelgan va odamlarni baxt-saodatga eltuvchi to'g'ri yo'lni ("sirot al-mustaqim"ni) bayon qilib berganlar.

Olim mulihazalari keng qamrovli bo'lib, ularning ichida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgani bu inson ma'naviy borlig'i to'g'risidagi qarashlari. Hususan, uning "Ihya al-

³⁸ Djorj F.Xurani. Razum i traditsiya v islamskoy etike. Izdatelstvo Kembridjskogo universiteta. 1985. S.151.

³⁹ Abu Homid G'azzoliy. Kimiyoi saodat.-Toshkent:"Adolat". 2005.-B.13.

ulum-ad-din” asarida barcha insonlarning avval ruhdan yaratilib, ular Allohga al – Miyoq – Ahdlashuv kuni bergan va’dasini unutib, yovuzlik, gunohkorlik, osiylik yo’lida yashayotganlarni aytadi. Mutafakkir insonlarni ikki toifaga bo’ladi: Birinchi toifadagi odamlar Al – Misoqda Xudoga va’dalarini unutib, iymonsiz bo’lib, qolgan – ko’zi ochiq, lekin qalbi ko’r bo’lib, qolgan. Ikkinchi toifadagi odamlar esa aql, tafakkur va dilning qudrati yordamida va’dalarini eslab, iymonli, fazilatli, sabr-qanoatli, shukr qiluvchi, mehr-muruvvatli, rahmdil oliy janob insonlar bo’lib, qolgan. Bular haqiqat va ma’rifat nuri bilan qalbi, ko’ngli va aqli ravshan odamlardir.

Kantning axloqiy qarashlari esa sabab va oqibat qonuni ustiga qurilgan. Buni faylasuf “geteronomiya”, deb nomlagan. Demak, biz erkinlik qonunini tabiat qonunidan ajratimoqchi bo’lsak, biz buni faqatgina erkinlik qonuni o’z o’zidan kelib chiqqan, degan tahmin bilan qilishimiz mumkin. Erkin irodaning kutilmagandagi sababiy hatti-harakati erkin tarzda o’rnatilgan qonun asosida amalga oshirilishi kerak. Bu aynan “Avtonomiya” deb nomlagan hodisadir; va erkin iroda avtonomiya tamoyiliga ko’ra amal qilinuvchi sifatida tushunilishi kerak, ya’ni axloqiy maksimalarga xos ravishda, qaysilar ham ayni paytda universal qonun sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ko’rib turganimizdek, G’azzoliy va Kantning axloqda sababiyat borasidagi qarashlari shu qadar chuqur va qamrovliki, birinchidan, spekulativ-dogmatik metafizikaga qarshi o’laroq hamfikir bo’lgan faylasuflar, o’zlarining sababiylik borasidagi qarashlari bilan ikki tomonga ajraladi. G’azzoliy ashariy ilohiyotshunosligi tarafdori sifatida zaruriy sabab va oqibat aloqadorligi g’oyasiga qo’shilolmaydi, buning aksi mutaziliylar va falosifada tahmin qilinadi. Buning o’rniga G’azzoliy okkazionalistik yondashuvni himoya qiladi.

Lekin agar aqlimiz bilishi mumkin bo’lgan bunday sabab va oqibat aloqadorligi bo’lmaganda edi unda aqlni optimal ravishda qo’llashdan ne foyda. G’azzoliy fikrida yetarlicha asos yo’q, toki inson aqlini mazkur jarayonlarni tushunishga chorlovchi yoki ular ustida jiddiy mehnat qilishga majburlovchi. Kant esa zaruriy sababiyat qonunini ma’qullaydi, bunda u o’zining ta’limotida Xudoning oliy hakamligi g’oyasiga putur yetkazmaydi. Bunda faylasuf zo’r strategiyani qo’llaydi, ya’ni hodisalar (fenomen) va noumenlar (narsa o’zida) sohalariga bo’lib. Kant hodisalar olamida sababiyat muammosini osonlikcha hal qiladi. Bunga u Transstendental estetikada ham Transstendental dialektikada ham u hech qachon noumenlar olamiga teginmaydi.

Afsuski G’azzoliyda bunday bo’lmaydi. Kant o’zining jiddiy intellektual tadqiqoti sabab, tabiatda ham sababiyat qonun amal qilishiga amin bo’ladi, buni faqat biz o’zimiz harakat qilib tushunishimiz, faol bo’lishimiz kerak. Hatto mutaziliylar qarashlarida bunday yondashuvni uchratmaymiz. Vaholanki, mutaziliylar islom nazariyasida eng ratsional, metafizik va teologik muamolarga juda chuqurlashib ketgan yo’nalish hisoblanadi. G’azzoliy kabi ular ham inson bilishi aslida qanday amalga oshishini ochib bera olmadilar. Sharq allomalaridan Ibn Rushd bu borada ildam qadam tashlagan. U deyarli Kant kabi, tabiatdagi zaruriy sabab va oqibat aloqadorligi biz uni qanday shakllantirishimizga bog’liqdir, deb hisoblagan. Bilishda subyekt faollikda bo’lishi borasidagi Averroes va Kant qarashlari yakdil. Ya’ni, biz insonlar o’zimiz hal qilishimiz va ochishimiz kerak tabiat qonunlarni. Ayni paytda, bu Xudoning mutlaq qudratli zot ekanligi haqidagi g’oyaga ham putur yetkazmaydi.

Ta'kidlash lozimki, Kant g'oyasi inson aqliga "motivatsiya" berib, uni jiddiy tadqiqotlarda toblaydi, illo tabiatning qonunlari inson aqli bilan anglashtiriladi. Bunda bizning pozitsiyamiz ta'lim olayotgan va ustoz aytayotgan hamma narsani eshitayotgan o'quvchiga emas, balki guvohni o'zi tuzgan savollarga javob berishini talab qilayotgan sudya pozitsiyasiga o'xshash.

Kant axloqiy ta'limotida gipotetik va qat'iy imperativlar katta ahamiyatga ega. Har bir tamoyil o'z asosiga ko'ra biror xohishni nazarda tutadi, insonning o'z o'zini sevishi yoki o'zining baxti uchun kabi xohishlar doirasiga taaluqli bo'ladi. Faylasuflar shu sababli ham baxtning universal formulasini yarata olmaydilar, chunki har bir insonning xohish-istagi zamon va makonda o'zgaruvchan. Demak, baxtga intilish asosidagi intilishlar gipotetik imperativlardir, ularga aprior zarurat yetishmaydi. Agar tamoyilda universallik xususiyati bo'lmasa unda u gipotetik imperativ, agar bo'lsa u qat'iydir. Inson qat'iy imperativga bo'ysunib yashay oladi, buning uchun unga iroda kerak va u erkin bo'lishi kerak.

Avgust Toluk fikricha, "G'azzoliy qalbidagi barcha ezguliklarni, aziz va yuksak tuyg'ularni, boy ilmi va pok amallarini Muhammad (s.a.v) diniga bag'ishladi. U Aristotel falsafasi va so'fiylarning tariqatlarida mavjud eng muhim g'oyalar islom ilohiyotida borligini ko'rsatib berdi".⁴⁰ Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da yozishicha, G'azzoliyning "Javohir ul-Qur'on" va "Mushokot ul-anvor" asarlari atoqli avliyolar, so'fiylarning xonaqohlarida asosiy saboq kitoblaridan hisoblangan. G'azzoliyning jahon falsafiy taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan "Tahofut ul-falosifa" ("Faylasuflarga raddiya") asari asrlar davomida Sharq va G'arb faylasuflari va ilohiyotchilari Foma Akvinskiy, Franchesko Petrarka, Rene Dekart, Gegel va boshqalarning falsafiy qarashlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. U "Al-qavl al-jamil fi-raddi ala min g'ayyar al-Injil" ("Injilni o'zgartirib, buzuvchilarga qarshi munosib so'zlar") asarida masihiylikning buzilmagan ko'rinishi islom ta'limoti, xususan tasavvufga juda yaqinligini isbotlaydi. G'azzoliy masihiylar haqida mehr va hurmat bilan yozgani uchun ba'zi mutaassiblar uni kufrikda ham ayblashgan. U so'fiylik yo'lidagi kamolot faqat tanlangan, nodir insonlarga xosdir, barcha musulmonlar Haqqa yaqinlikka munosib emas, deb hisoblaydi. Shu sababli, u avom xalqqa boshqa so'zlarni aytadi va hol ilmiga doir bilimlarni barchaga aytishga ruxsat yo'q, deb tushuntiradi. Chunki, G'azzoliy fikricha, avom odamlar oliy haqiqatlarni bilishga toqatlari yetmaydi. Ayni vaqtda u, tasavvufga kirish uchun barchaga yo'l ochiq, lekin ko'pchilik bu yo'lning mashaqqat – riyozatlariga chidamaydi, deydi. G'azzoliy "Mezon ul-amal" asarida komil insonning iymon-e'tiqodi boshqa musulmonlar iymonidan farqlanishini aytadi. Ammo bu farqlarni ham barchaga oshkora aytish mumkin emas.

G'azzoliy va Kant ijodida axloq ratsional soha sifatida tadqiq qilinganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Axloq sohasida eng ahamiyatli muammolardan biri bu qadriyatlar masalasidir. Islom rivojlanishining dastlabki davrlarida teolog-dialektiklar, shu muammoga duch kelganlar va qadriyatlarining ratsional asoslarini topishga uringanlar. Biroq G'azzoliy bunga e'tiroz bilan chiqdilar. Agar axloqiy qadriyatlarni ratsional deb hisoblasak, ya'ni inson aqlidan kelib chiqishini asoslasak biz bunda qadriyatlar nisbiydir

⁴⁰ Fridrich Avgust Gottoroy Toluck. Stunden christlicher Andacht. 1970. P.156.

degan xulosaga kelishimiz muqarrar va mutlaq axloq bo'lishi mumkin emas ekan, degan, xato xulosaga kelib qolamiz.

Bundan tashqari, agar axloq me'yorlarini nisbiy emas, mutlaq deb oladigan bo'lsak uning ortidan ilohiy ta'qiq va Allohning qat'iy irodasi turishini anglaymiz. Ash'ariylardan bo'lgan G'azzoliy mazkur pozitsiyani qabul qiladi, ayni paytda bu omil uning diniy axloq nazariyasini yaratishiga asos bo'ladi.

Axloqda mutlaqlik va nisbiylik masalasida Kant G'azzoliy fikriga qarshi emas. Ammo axloq qanday qilib mutlaq bo'lishi borasidagi qarashlarida u ash'ariylardan farqli bir fikr bildiradi va mutaziliylarga qo'shiladi. Ya'ni, u axloqiy qadriyatlarning qat'iy va mutlaqligini aql bilan asoslaydi. Shu sababli ham biz uning (Kantning) axloqiy nazariyasini ratsional deymiz. Bu borada, G'azzoliy, ash'ariylar fikriga qo'shiladi va shu masalada Kantga oppozitsiyada, inchnun bunday axloqiy tizim faqat dindan kelib chiqishi mumkin, deb hisolagan.

G'azzoliy va Kant qarashlarida, axloqqa olib borgan "yo'l"ida sezilarli o'xshash jihatlar mavjud. Ular metafizikani tanqid qilishdan boshlaydilar va etikaga yetib keladilar. Ya'ni, G'azzoliy ham Kant ham dogmatik metafizika – u xoh spekulyativ bo'lsin, xoh emanativ bo'lsin bundan qat'iy nazar tanqid qilinishi kerak, deb hisoblagan. Chunki u insonni Xudo va mangulikni to'g'ri tushunishga olib kelmaydi. Biroq, bu masalarni tadqiq qilishda G'azzoliy va Kant metodologiyasi turlicha bo'lgan. Maqsadlari bir, ammo bu maqsadga olib keluvchi yo'l xaritasi har xil edi, faylasuflarning. Bunda G'azzoliy gipotetik metodni, Kant esa analitik metodni qo'llaganligiga guvoh bo'lamiz. Bizningcha, axloqni faqat muayyan oqilona tamoyillar va me'yorlardan tashkil topgan soha, deb chegaralamaslik kerak. U kengroq doirada amal qiladi, deb hisoblaymiz ya'ni inson tafakkuri, ongu shuuri va qalbi bilan muvofiqligida va uyg'unligidagi ijobiy xarakterdagi hatti-harakatlar majmuini tashkil qiladi.

G'azzoliy va Kant falsafiy asarlarida estetik tamoyillarning konseptual tahlili nomli uchinchi bob Abu Homid G'azzoliyning "Ihyo ulumiddin" asarida tasavvuf estetikasining namoyon bo'lishi, Immanuil Kantning "Muhokama qobiliyatining tanqidi" asarida subyektiv idealistik estetika g'oyalarining asoslanishi shuningdek, Immanuil Kant qarashlarining Sharq estetikasi bilan uyg'un jihatlarining tahliliga bag'ishlangan.

Madaniyat tadrijiy taraqqiyoti, muayyan ma'noda, estetik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi. Ayni paytda, inson ma'naviy-madaniy faoliyati estetik g'oyalar, takliflar, munosabatlarga asoslanadi. Estetika mehnat, hayot, ijod, san'at va sanoat ishlab chiqarishining bir qismi bo'lib, kishida kreativ tashabbus va go'zallikni idrok etish qobiliyatini shakllantiradi. Falsafiy tafakkur tarixida madaniy rivojlanishda estetik g'oyalarning roli tadqiq etilishi dolzarbligi ma'naviy-amaliy, ya'ni umuminsoniylikka e'tibor qaratishi bilan belgilanadi. Sharq va G'arb estetikasi asosan go'zallik va ulug'vorlik doirasidagi tamoyillarga asoslanib kelgan. Ya'ni, nafosat bilvosita axloq bilan aloqador hisoblangan. Abu Homid G'azzoliy go'zallikning tasavvufona idrok etilishini anglab yetgan va u faqat Allohga xos bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. G'azzoliy uchun borliqda hamma narsa Alloh tomonidan yaratilgan, har bir yaratilgan narsasi Uning buyukligi va qudratini namoyon qiladi. Kant esa estetika dunyosidagi o'yin, tasodif, zavq hodisalari bilan butun olamni nafis san'at asariga aylantirib, ayni paytda undagi jarayonlarni tanqid qilish va yaxshilash, inkor etish va yaratish orqali ifodalagan.

G‘azzoliy fikricha, go‘zallikning uch xil turi mavjud. Birinchisi – bu tashqi (zohiriy), *jismoniy* go‘zallik, bu uning fikricha eng quyi shakli. Bu haqda “Kimiyo saodatda” muallif: “...inson, och rang teri bilan qoplangan ko‘ngilni aynituvchi materiya xolos. Ko‘p yuvinib turilmasa u mutlaqo jirkanch va sharmandali holatga kiradi”, deb yozgan. Ikkinchi turi – *axloqiy* (botiniy) go‘zallik, bo‘lib, uni faylasuf inson fe‘l-atvori bilan bog‘laydi. Birinchi turdagi insonlar (faqat hissiy lazzat bilan tanish bo‘lgan inson)– go‘zallik oq-qora yuzlardan, go‘zal qomat, a‘zoldan iborat, deb hisoblaydi. Ayni paytda u axloqiy go‘zallikni ko‘rolmaydi. Axloqiy go‘zallik fe‘l-atvori yaxshi bo‘lgan insonlarda uchraydi, ular ham o‘z navbatida, hayot bo‘lmasada axloqan go‘zal bo‘lgan, masalan Abu Bakr Siddiq yoki Umar halifa kabi buyuk insonlarni yaxshi ko‘rib yuraveradi, aynan, ularning fazilatlarini uchun. Bunday muhabbat biror tashqi-zohiriy shaklga emas, ichki xislatlarga qaratilgan.

G‘azzoliy ta‘riflagan uchinchi turdagi go‘zallik – *ma‘naviy* go‘zallikdir, u eng ulug‘voridir, chunki to‘g‘ridan to‘g‘ri Alloh bilan bog‘liq va ekstaz holati orqali idrok etiladi. “Inson qalbi shundayki, unda olov yashiringan, musiqa va uyg‘unlik bilan uyg‘onadi va insonni ekstazga olib keladi. Bu uyg‘unlik – bu o‘sha haqiqiy go‘zallik olami aks-sadosidir, biz uni ruhlari olami deb ataymiz; ular insonga o‘sha olamga aloqadorligini esiga soladi, shunda ajoyib va chuqur hissiyotlarni yuzaga keltiradi, inson aslo ularni tushuntira olmaydi”.

Uyg‘unlik musiqada hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sufiy uchun uyg‘unlik muhim hayotiy komponent. Atrofdagilar bilan, boshqa odamlar va o‘zi bilan uyg‘unlikda bo‘lish Allohni topishni va tabiatini tushunishni osonlashtiradi.

Shunday qilib, G‘azzoliy o‘z mulohazalarini jismoniy va ma‘naviy zavqlarni qiyoslash bilan davom ettiradi: “Endi biz muhabbat mohiyatini o‘rganishga yetib keldik. Muhabbat bu yoqimli bo‘lgan narsaga moyillikdir, deb sifatlanisa bo‘ladi. Bu, ayniqsa, besh sezgi organlariga tegishli bo‘lib, har biri unga zavq bag‘ishlaydigan narsani yaxshi ko‘radi; shunday qilib ko‘z chiroyli shakllarni, eshitish qobiliyatimiz go‘zal kuylarni va hokazo. Bu o‘ziga xos muhabbat turi bo‘lib, uni biz hayvonlarnikiga o‘xshatamiz”. Demak, ichki sezgi bilan idrok etiladigan, seviladigan, immanent ma‘naviy go‘zallik va mukammallik mavjud bo‘lib, u hamma uchun ham bilinmaydi. Shu ma‘noda ham faqat hissiy zavq tanish bo‘lgan kimsaga boshqalar uchun tafakkur, ibodat lazzatini – ayollar, moddiy narsalar va muattar hidlardan ko‘ra ko‘proq zavq berishi tushunarsiz bo‘ladi. Allohni idrok qilish uchun qalbi ochiq inson tashqi nazarlardan hazar qiladi, ular qanchalik go‘zal bo‘lmasin.

“Ihyou ulumid-din”da G‘azzoliy inson tabiatini uch kategoriyaga ajratadi: birinchisi, hayvonlarnikiga o‘xshash, ikkinchisi – shaytonlarnikiga, uchinchisi esa – farishtalarnikiga. Demak, insondagi sifatlarning ba‘zilari hayvonlarga, boshqalari shaytonlarga, ayrimlari farishtalarga xos bo‘lib, har bir inson o‘zida ularning qaysi biri vaqtinchalik va tasodifiy, qaysilari muqim va doimiyligini anglashi muhim. Toki inson shuni tushunib yetmas ekan haqiqiy baxti nimadan iborat ekanligini bilolmaydi. Hayvonlarning ishi yeyish, uxlash, kurashishdan iborat, shuning uchun agar inson o‘zini ularday hisoblasa faqat shu bilan chegaralansin. Shayton mudom nopok ishlar bilan band, fitna-fasod, yolg‘on-bo‘hton, g‘iybat-muhokama... farishtalarchi Alloh go‘zalligini mushohada qiladi, mudom Uning zikrida, agar inson farishta tabiatli bo‘lsa unda o‘zligiga intilishi kerak, shunda Buyuk Zotni mushohada qiladi va ko‘p narsalarni

anglaydi, qullikdan - hirs va g‘azabga mute’likdan xalos bo‘ladi. G‘azzoliyda go‘zallik moddiy va ma’naviy mezonlar asosida tadqiq etilishi, go‘zallik Alloh bilan bog‘lanashi va shu ma’noda ulug‘vor ahamiyat kasb etishini ko‘ramiz.

Darhaqiqat, Alloh go‘zaldir va U go‘zallikni sevadi. Moddiy go‘zallikni ko‘z bilan ko‘rish mumkin. Ilohiy marhamat go‘zalligini faqat aql bilan ilg‘ash va anglash mumkin. Go‘zallik, shaxs fazilatlarini tasvirlash uchun ham qo‘llaniladi. Shunday insonlarni bilamiz, hatto vafot etgan bo‘lsa ham uni yodga olganimizda iliq tuyg‘ularni his qilamiz. Kimsani tashqi ko‘rinishigina uchun emas, balki yuksak insoniy sifatleri uchun ham go‘zal bo‘lishi, qalbi go‘zal deb e’tirof etilishi mumkin. Shu ma’noda, biz tom ma’nodagi go‘zallikka abadiylik xos bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Shuningdek, G‘azzoliyda go‘zallik tuyg‘usi chuqur bo‘lsa u – ishq bo‘ladi, deb aytiladi. Dunyodagi jamiki go‘zallik Alloh go‘zalligi va nurining tajaliysidir, deyiladi. U doimiy go‘zal va jamiki go‘zallik ibtidosi va manbasi hisoblanadi. Yaratilgan narsani sevish – johillik belgisi, ta’kidlaydi G‘azzoliy.

Shu nuqtayi nazardan, Yaratganga muhabbat komillik, yaratilmishga muhabbat kentiklikdir. Oqil bo‘lmagan inson muhabbatni jismonan birlashish, hirsni qondirish bilan adashtiradi xolos. Ammo Uni bilgan, iymon keltirgan, uning go‘zalligidan boshqa go‘zallikni hushlamay qoladi.

Borliqda mavjud hamma narsa – Allohning yaratgan narsalari va uning qudratiga ishoralardir, inson ular orqali Uning hikmatini, nima demoqchiligini anglab yetadi, deb G‘azzoliy go‘zallik hodisasi obyektiv idealistik nuqtayi nazardan ochib berishga harakat qilgan.

Immanuil Kantda esa go‘zallik subyektiv idealistik talqin etilgan. Go‘zallik mushohadasida bizning bilish qobiliyatlarimiz jonsiz asarlarni jonlantiradi, deydi Kant. Faylasufning go‘zallik tanqidi “go‘zallik tushunchasiz shakl”, “maqsadsiz maqsadga muvoffiqlik”, “umumahamiyatlilik”, “beg‘arazlik” kabi ziddiyatlar o‘yini bilan boshlanadi. Kant aqlda sof shakl bor, deb ataydi. U obyeksiz va hatto subyektivlikning biror uchqunlari qo‘shilmagan sof obyektivlik ifodasidir. U ruh mahsuli emas, balki obyektidan mahrum bo‘lgan shakl.

Kantning “Sof aql tanqidi” bilish imkoniyatlarini ochib beradi, “Amaliy aql tanqidi” faylasufning axloqiy qarashlari haqida, yuqorida shu haqda mulohaza yuritgandik va uchinchi tanqidi, ya’ni “Muhokama qobiliyatining tanqidi”ning katta qismi go‘zallik va ulug‘vorlik tahliliga bag‘ishlangan. Faylasuf “estetika” atamasining o‘sha davrda tushunilgan “his etiluvchi”, “his qilish” degan ma’noda qo‘llamagan. “Muhokama qobiliyati tanqidi”da estetika va go‘zallikni tahlil qilish Kantning to‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsadi bo‘lmagani, balki faqat umumiy izlanishlari natijasi o‘laroq yozilgan, ya’ni go‘zallik asosiysi emas, balki uni hukm qilish qobiliyatining eng sof shakli sifatida namoyon bo‘lishi ahamiyatliroq bo‘lgan.

Kant estetikasiga ko‘ra, obyektning faqat bitta, sof betakror moddiy element haqiqiydir, biz unda ko‘rgan hamma narsa biz bularning barchasini haqiqiy bo‘lmagan narsalarda ko‘ramiz, ya’ni ularni tasavvurimizda hosil qilamiz. Bularning barchasi obyektarning sof subyektiv dunyosini yaratadi.

Kant bunda ochib berishga harakat qilayotgan hodisa, narsa o‘zidadir, u “g‘ayritabiiy”, “g‘ayb” dunyo bilan bog‘liq. Narsa o‘zidani bilib bo‘lmaydi, nima ekanligini ayta olmaymiz, u haqda umuman aniq bir narsa deya olmaymiz, chunki,

bilganimiz va ta'riflaganimiz bilan u narsa o'zida bo'lmay qoladi inson olamiga kirib boradi, ya'ni narsa biz uchunga aylanadi, o'zgacha mazmunli hodisaga aylanadi. Garchi, Kant narsa o'zida haqidagi ushbu metafizik muhokamasi uchun ko'p bor tanqid qilingan bo'lsa-da, aslida u bu konsepsiyasi bilan asl va haqiqiy dunyo mavjudligini ko'rsatishga harakat qilgan.

Shu nuqtayi nazardan, bizning ongimizdan va bilishimizdan tashqari hali ko'p narsa borligini taxmin qilishimiz mumkin. Biz tashqi dunyoni undan tashqaridagi narsalardan farqlashimiz kerak. Asl dunyo u yerda, bizdan tashqarida, biz uning yaratuvchisi ham ohirigacha biluvchisi ham emasmiz. Inson asl dunyodan o'ziga xos va ruxsat etilgan narsalarnigina angelaydi, biladi.

Bundan tashqari, inson atrofidagi real olam, zamon va makondagi ko'plab narsalar insonning bilishiga taaluqli bo'lmagan ko'plab sabablarning oqibati ekanligini ham nazarda tutishimiz kerak.

Dissertatsiyada, Kantning "Transstendental tamoyillar ta'limoti" tadqiq qilingan. Faylasuf hissiyotlarimiz va ongimiz imkoniyatlarini ifodalab, ular orqali biz dunyo haqidagi bilim va tasavvurlarimizni yaratamiz, ularni his qilamiz va fikrlaymiz. Faylasuf aytganidek, "inson bilishida ikkita asosiy ildiz bor - hissiyot va aql. Sezgi organlari orqali obyektlar bizga beriladi, aql bilan ular tafakkur qilinadi.

Transstendental, deganda Kant faqat ongimiz va uning "ibtidolari" (hissiyot va aql) kognitiv faoliyatining aprior komponenti bilan qiziqqanini ko'rsatgan. "Men predmetlar bilan emas, balki bizning ongimizga xos bo'lgan bilishning apriori turlari bilan bog'liq bo'lgan har qanday bilishni transstendental, deb atayman"⁴¹. Ya'ni bunda, biz ongimiz kognitiv faoliyatining o'zidan hosil bo'lgan bilish nazarda tutiladi.

Kant go'zallik va ulug'vorlikni alohida tadqiq qilgan, uning estetik ta'limotining asoslari bu ikki estetik kategoriyalardir, deb aytsak ham bo'ladi. Go'zallikka qiziqish yaxshilikka qiziqish bilan bog'liqmi? savoliga Kant "ha", deb javob beradi, go'zallikka oshno bo'lgan inson bosh maqsadi axloqiy jihatdan yaxshilik qilish bo'ladi, deb hisoblaydi. Ammo bizningcha, bu borada qat'iy "ha" javob berish unchalik to'g'ri emas. Go'zallikdan zavq oluvchi virtuozi behuda, ko'pincha zararli ehtirolarga berilib ketgan va shuning uchun go'zallikka qiziqish axloqiy tuyg'u bilan mos kelavermaydi, deb hisoblaymiz. Bizningcha, go'zallikka bo'lgan qiziqish hali ezgulikka qiziqishning dalili bo'la olmaydi. Tabiatning go'zalligiga qiziqish esa toza qalb egasining belgisidir. Kant ham tabiiy go'zallikni sun'iylikdan hamisha ustun qo'ygan va birinchisini axloqiy yaxshilik bilan bog'lagan.

Dissertatsiyada Sharq faylasuflari estetik qarashlari tahlil qilingan. Sharqda estetik qarashlar maishiy qiziqishlardan xoli, olamning immanent xususiyati hisoblangan, shuningdek, haqiqat (G'azzoliy) va baxtga (Forobiy) erishish vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Immanuel Kant go'zallikning belgilarini keltirar ekan uning, avvalo, beg'arazligini ta'kidlaydi. Lekin bu Sharqda ancha ilgari ma'lum bo'lgan. Imom G'azzoliyning qadriyatlar iyerarxiyasida Allohga muhabbatdan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydigan "go'zallikka muhabbat" beg'arazligi asoslab berilgan.

Sharq allomalari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi mutafakkirlar fikricha, tabiat, shu jumladan inson ham oliy ilohiy go'zallik ifodasidir, demak u ham

⁴¹ Kant I. Sobraniye sochineniy. T.3.Kritika chistogo razuma. M., Choro.1997. C.121.

ikki xil mavjud bo‘la oladi – borliqda yashirin, potensial asos sifatida va ochiq-oydin, ayon va faol shaklda. Bu hodisalarni olmon faylasufi noumenallik va fenomenallik sifatida keltirib, nafaqat insonga, balki har bir tirik mavjudotga nisbatan qo‘llaydi. Noumenal– yashirin, inson bilish mumkin bo‘lmagan “narsa o‘zida”, fenomenal –bilish mumkin bo‘lgan narsa “narsa biz uchun”ni tashkil qilgan hodisalar. Kantning fikricha, har birimiz go‘zallik va ulug‘vorlikning fenomenal jihatinigina dunyoqarashimiz darajasida idrok qilamiz, biroq bu hali hammasi emas chunki, uning noumenal jihati mavjud, u esa sof go‘zallik, deb ataladi. Uning aslida qandayligini bilishga qodir emasmiz, deganda Kant, nazarimizda, ilohiy borliqni nazarda tutgan. Bu taxminimiz faylasufning ulug‘vorlik haqidagi qarashlarida o‘z tasdig‘ini topadi.

I.Kant ulug‘vorlik haqida fikr yuritib, u tabiatda o‘z holicha bo‘lmaydi, degan fikrga keldi. Tabiatdagi ulug‘vor hodisalar aslida go‘zallik obyektini bo‘lishi mumkin. Ularni ko‘rganda biz estetik dunyoqarashimizdagi obraz va g‘oyalari asosida uni ulug‘vorlik sifatida idrok qilamiz. Demak, ulug‘vorlik o‘zimizda, qalbimiz va fikrimizda bo‘ladi. Bu ham aslida insonning immanent xususiyati hisoblanadi. Biroq sof ulug‘vorlik yovvoyi tabiatda bo‘ladi, hech kim e’tibor bermaydigan o‘simlik yoki biror kichik jonivorni ko‘rganda, uning tuzilishi va xatti-harakati nima uchundir diqqatimizni jalb qiladi, shunchaki jalb etibgina qolmay, qalban o‘ziga maftun qiladi. Bizga mutlaqo ma’lum bo‘lmagan maqsadga muvofiqlikni his qildiradi. Shu o‘rinda, Kant – islom estetikasi, xususan, tasavvufga ko‘ra, borliqda mavjud bo‘lgan har bir narsa-hodisa go‘zal, uning funksiyasi va bajarayotgan roli arziyas darajada kichik bo‘lsa ham o‘z asosiga ko‘ra universal ilohiy go‘zallikka ega Olohning zarrasidir, - tezisini ifodalayotganiga shubhamiz qolmaydi.

G‘arb estetikasidan farqli o‘laroq, komillik, go‘zallik, uyg‘unlikka qarama-qarshi kategoriyalar sifatida tubanlik, xunuklik, nomutanosiblik emas, boshqa komillik, go‘zallik va uyg‘unlik obyektlari qo‘yiladi bu barcha narsaning mohiyatini tashkil qiladi. O‘z asosini Allohdan oluvchi oliy go‘zallik, oliy uyg‘unlik, oliy komillik insonga ham xos bo‘lishi lozim. Sof (ilohiy) go‘zallik obyektini turli obrazlarda ifodalanuvchi Allohga ulug‘vor va ekstatik muhabbat, g‘oyibona olamga, ayni paytda, dunyoviy hayotga taalluqli. Chunki tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, Allohning sirli mohiyatini, ayni paytda, “Men”ning chuqur mohiyatini, oliy go‘zallik va universal olam uyg‘unligini aql, mantiq, ilmiy bilish yoki tasavvur orqali tushunish hamda tushuntirishning imkoni yo‘q. Bu sohani faqat qalban zabt etish, ekstaz, trans holatida o‘z aksini topuvchi ulug‘vor va mistik muhabbat orqali ifodalash mumkin.

Sharq falsafasi, ayniqsa, tasavvufning diqqat markazida insonning axloqiy va intellektual takomili turgan, bu maqsad I.Kant qarashlarining ham asosini tashkil qiladi. Faylasuf Kopernik tomonidan olib qo‘yilgan antropotsentrizmni ilm-fan va insoniyatga qaytarib berdi. Uning o‘ziga xos “Kopernikona to‘ntarish”i ham musulmon metafizikasi postulati bo‘lgan “olam illyuziyalardan iborat”ligi, o‘tkinchi va o‘zgaruvchanligini asoslash orqali amalga oshirildi. Ya’ni u olamning quyosh atrofida emas, inson atrofida aylanishini, borliqdagi voqea-hodisalarni o‘z aql-idroki bilan yaratishini aytadi. Shu nuqtayi nazardan, faylasufni, asarlaridagi g‘oya va qarashlariga tayanib, uni ikki olam – G‘arbu Sharq estetik tafakkurining organik qorishmasini yaratgan daho sifatida e’tirof etishimizga asos beradi. Uning uchun xuddi Gerderda bo‘lgani kabi Sharq estetikasi Bibliya va Qur’on obrazlari sintezi va tor diniy dunyoqarashdan xalos qilish manbasi


sifatida ahamiyat kasb etgan bo'lsa ajab emas. Shu ma'noda, biz Kant "Tanqid"larini G'arb va Sharq tutashgan makon, umuman transstendental mohiyatli insoniyat tafakkurining yuksak namunasi, deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning **G'azzoliy va Kant axloqiy-estetik merosining O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini yaratishdagi ahamiyati** nomli to'rtinchi bobida Abu Homid G'azzoliy axloqiy-estetik merosining tarbiyaviy jihatlari, Immanuel Kant transstendental estetikasining yoshlar ma'naviy-axloqiy takomilidagi o'rni, shuningdek Yangi O'zbekistonda inson qadri ma'naviy-axloqiy tamoyilini amalga oshirishda mutafakkirlar falsafiy merosining ahamiyati asoslab berilgan.

Zamonaviy olam bugungi kunda ko'plab axloqiy-estetik muammolarni oldimizga ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Ba'zan yoshi ulug'lar, biz o'rta yosh vakillari yechimini topishga qiynaladigan axloqiy-estetik masalalar yuzasidan yoshlardan nima kutish mumkin, ularni salbiy muhokama yoki tanqid qilishga haqqimiz bormi o'zi? Nima qilish kerakligini bilmayapmizmi – demak muammo tafakkurimiz, dunyoqarashimiz, falsafamizda, aksincha zamon va makondagi jarayonlarda emas. Aslida Aflotunning g'or haqidagi afsonasidayoq allaqachon hal qilib berilgan ma'rifat g'oyasi nazarimizda G'azzoliy va Kant qarashlarida rivojlantirilganlar. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar bundan ma'naviy ozuqa olib kelgan, olishda davom etayapti ham. Bizdachi, hanuz kontinental va analitik falsafani yoritamiz. Buning domiga tobora kirib borayapmiz, ba'zan odam o'zini bunda botqoqqa botayotgandek xis qiladi. Bu bizni o'ylashga, tafakkur qilishga o'rgatmaydi, bu bizni boshqaning tilida gapirishga, u kabi fikrlashga faqat istisno ravishda dunyoqarashimizni kengaytirishga xizmat qiladi xolos. Bunda faktologiya yoki obyektivlik bo'ladi albatta, bu yaxshi, ammo, bizga o'zimizning konseptlar kerak. Kant ham "O'z aqlingdan foydalanishga jasoratli bo'l!" (Имей мужество пользоваться своим умом!), G'azzoliy ham nisbiy axloq pozitsiyasida shunga undaydi. Bunday kontekstda axloqiy-estetik masalalar ma'nosi, mazmun-mohiyati, tushunchalarni qo'llash amaliyoti konseptual analitik tahlilga muhtojligi aniq, bu ayniqsa Yangi O'zbekiston rivojlanishi, Uchinchi renessans poydevorini yaratishning oqilona, yaqin va uzoq kelajakdagi istiqbol nazariyasiga ehtiyoji borligi jihatidan ham mutafakkirlar falsafiy ta'limotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusi yuzasidan O'zbekiston Milliy universiteti, Al Buxoriy universiteti, Qozon (Volgabo'yi) Federal universiteti Jizzah filiali talabalari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazilib, quyidagi natijalar olindi. Shuni hisobga olish kerakki respondentlarimizning yoshi: 6% i 14-17 yoshni, 17% i 18-22 yoshni, 41% i 23-28 yoshni va 36% i 29-35 yoshni tashkil etdi.

Birinchi savolda respondentlarimizdan sharq va g'arb madaniyatlarini nimalar ajratib turishini so'radik, bunda respondentlarimizning javobi Din 47%; Insoniylik 4%; Buyuk siymolar 2%; Mehr oqibat 36%; Manfat 6%; Muhabbat 4%; Hech qaysi 1% ni tashkil etadi.



Keyingi savolda respondentlarimizga: G'arbda insoniylik va mehr oqibat huquqiy me'rlarga tayanadimi? degan savol berdik, bunda respondentlarimizning 708 tasi ha, 283 tasi yo'q va 9 tasi javob berishim qiyin deb javob berishdi.



Shu o'rinda, ijtimoiy so'rov respondentlarimizdan sharqda insoniylik va mehr oqibat nimalarga tayanishii so'radik, bunda respondentlarimizning javobi Umumiy e'tirof etilgan qadriyatlarga 12%; Dinga 57%; Buyuk siymolar o'gitlariga 9%; Milliy qadriyatlarga 11%; Ma'rifatga 9%; Muhabbat 2%; Hech qaysi 11% ni tashkil etdi.

Сизнингча шарқда инсонийлик ва меҳр оқибат нималарга таянади?



Ta'kidlash lozimki, islomiy falsafiy tafakkur tarixida bir davrining tugashi va yangi davrining boshlanishi G'azzoliy nomi bilan bog'liq. Falsafa tarixi haqida "Maqosid", uning to'liq bir tanqidiy kitobi sifatida "Tahofut" shuningdek, dunyoviy va diniy ilmiy hamjamiyatda o'z o'rnini topishga ulgurgan "Ihyo"larda axloq va estetika haqida yangicha gapirish uslubi sinalgan noyob asarlardir. Shu ma'noda G'azzoliy islom tafakkuri tarixidagi eng buyuk faylasuflardan biri degan e'tirof ham loyiqdir.

Uning o'ziga xos uslubi – muammoni oyatlar va hadislar bilan ta'riflab boshlab, mufassal ravishda unga tarafdor va qarshi fikrlarga o'rin beradi, so'ng o'z fikrini bayon etishda bahsning qudratli kuchini ko'rsatadi, shuningdek, ba'zan ularni tushuntirish ma'nosida muayyan sharhlar bilan to'ldiradi.

Abu Homid G'azzoliy axloqiy-estetik merosining tarbiyaviy masalalari birinchidan, uning "Ihyo" asaridagi muammo ta'rifi, ayniqsa "Muqaddima"da hatto bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan ijtimoiy jarayonlar falsafasining, avvalo "o'tmishning haqiqiy borlig'i"ni hisobga olingan holda o'qilishi, uning "yangi" davr nimalarni maqsad qilgani va o'z tarixini ochib berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ta'limoti orqali yoshlar taqlidiy ilm, ya'ni o'tmishdan meros qolgan, ota-ona va ustozlardan olinadigan bilimlarnigina emas, o'zlari ilm kashf etishga ishtiyoqi oshadi. O'ziga, o'zligiga e'tibor berib boshlaydi. Taqlidiy ilm ko'r-ko'rona ergashish bilan bo'ladi, kashf etilgan ilm esa har bir shaxsning qobiliyati, shuuriy izlanishi orqali qo'lga kiritiladi. Shuning asosida jamiyatda yuzaga kelgan axloqiy muammolar ham muayan darajada yechimini topadi.

Ikkinchidan, axloq va nafosat falsafalari bir-birini to'ldiruvchanligi bosh masala sifatida belgilagan hamda hozirgi voqelikni "tushunishi" o'tmish va bugunning individual va umumiy tajribasini dialektik aloqadorlikda ekanini ko'rishga yordam beradi.

Uchinchidan, G'azzoliy tadqiq qilgan bosh masala din bilan bog'liq muammolardir, ammo faylasuf ularni axloqiy jihatdan asoslashga harakat qiladi. Kant ham bu haqda, inson avvalo axloqni keyin dinni o'zida hosil qilish kerakligini

ta'kidlaydi. Bu asosni ochib berish uchun G'azzoliy o'z ta'limotida insonning barcha tajriba namunalaridan foydalanish qobiliyatiga ega ekanligini keltirgan.

G'azzoliyni bezovta qilgan asosiy muammo shundaki, o'tmish tajribasi substantiv hodisa sifatida boshqa davrda tugallanmasligi.

Ta'kidlash lozimki, G'azzoliy va uning axloq falsafasida nazarda tutilgan hodisa, axloqning manbai yolg'iz diniy tajribada emasligi, unga inson fitratidagi iymon, shuningdek, boshqa barcha insoniy xususiyatlar - ijtimoiy, axloqiy-estetik, iqtisodiy-siyosiy, madaniy yoki sivilizatsion jarayonlar bilan ifodalanadi, ular bir-birini vujudga keltiradigan xolizmdir.

Insonning shaxsiy tajribasi yangilik va bunyodkorlikka ochiq yo'l-yo'riq ko'rsatadi. G'azzoliy va Kantning axloq falsafalari nafaqat ezgu amallar, balki ularning ibtidosi (Kantda – Aql, G'azzoliyda – Alloh roziligi) haqida va o'sha harakatlarning o'tmish va kelajakdagi substantiv holatlarini bayon qiladi.

Zamonaviy axloqiy muammolarning dolzarbligini axloqiy tadqiqotlarining barcha jabhalariga qiziqish uyg'otadi. Bugungi kunda ma'naviy qadriyatlarining qadrsizlanishi jamiyatimiz taraqqiyoti, umuminsoniy fazilatlarini ro'yobga chiqarmaslikning fojiali natijasi ekani va madaniy an'analarni qayta tiklash zarurligi ta'kidlanmoqda, bu esa axloq va axloqning tarixiy shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish qobiliyatiga bog'liq. Bu qobiliyat (yoki hech bo'lmaganda uni egallash istagi) har qanday kamol topgan shaxsga xos bo'lishi kerak, shuning uchun oliy ta'lim insoniyatning axloqiy tajribasini o'rganmasdan turib to'liq hisoblanmaydi.

Bugungi kunda Axloqshunoslik - Etikaning fan sifatidagi ahamiyati ma'lum, ammo bu axloq tugadi degani emas. Axloq haqidagi bilimlar doimo rivojlanib boradi, bunga nafaqat olimlar va axloqshunoslar, balki faylasuflar, sotsiologlar, dinshunoslar, psixologlar, tarixchilar, o'qituvchilar - inson tabiati muammolariga murojaat qiluvchilarning barchasi ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, etika nafaqat axloqning mohiyatini aniqlashga, balki axloqiy tadqiqotlarni turli fanlar bilan birlashtirishga intiladi.

Bu borada Immanuel Kant muhim rol o'ynagan, u etikaning mustaqil tadqiqot sifatida shakllanishining uzoq va mashaqqatli tadqiqotini olib borgan. Nemis faylasufi etikasi o'zidan oldingilaridan farqli o'laroq, din, psixologiya, antropologiya yoki inson haqidagi boshqa fanlardan axloqqa oid hech narsa olmaydi, qonunlar, axloqiy tamoyillar empirik bilimlardan va apriori bilish orqali ongimizga singdiriladi.

Kant butunlay mustaqil fan sifatida "sof axloq falsafasi"ni rivojlantirishga intildi. Uning fikricha, axloqiy xulq-atvor mayl, manfaat, taqlidga asoslanmaydi, balki axloqiy qonunni hurmat qilishga asoslanadi, axloq mohiyatiga emas, balki tegishli bilimlarga bog'liqdir. Axloq falsafasi butunlay boshqa dunyoni – erkinlik olamini o'rganadi. Agar fizika tabiat qonunlari haqidagi fan bo'lsa, axloq erkinlik qonunlari haqidagi fandir. Kantning axloq nazariyasining mutlaqo yangicha yondashuvining mohiyatidir.

Immanuel Kantning axloq nazariyasi – deontologik (burch axloqi) hisoblanadi. Birinchidan, Kant axloqiy harakat qilish uchun odamlar taslim bo'lishlari kerakligini aytgan. Ikkinchidan, harakatning to'g'ri yoki noto'g'riligi, oqibatlari emas, balki harakatni bajarayotgan shaxsning niyatli harakatlari sabab bo'ladi, aynan shu jihatni u ahamiyatli, deb ta'kidlaydi.

Kantning axloqiy jihatdan to'g'ri harakat qilish uchun amalning eng yuqori darajadagi yaxshilik asosida bo'lishi kerakligini aytadi. U mavjud bo'lganda, biror narsa "o'z-o'zidan yaxshi" bo'lib, ichki jihatdan yaxshi va "malakasiz yaxshi" bo'lsa, axloqiy jihatdan vaziyatni yomonlashtirmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, Kant odatda yaxshi, deb hisoblangan narsalarni aytdi, masalan, aql, qat'iyat va zavq, o'z-o'zidan yoki malakasiz yaxshi bo'la olmasligini aytadi. Misol uchun, malakasiz zavq yaxshi ko'rinmaydi, chunki odamlar kimningdir azoblanishini tomosha qilishdan zavqlanishsa, axloqiy jihatdan bu uning yomonligidan dalolat beradi.

Dunyoda hech narsa, hatto dunyodan tashqarida ham, o'ylab topilmagan – u apriori mavjud bo'ladi, yaxshilikning ahamiyati esa uni oldindan o'ylamay hatto malakaga ega bo'lmay amalga oshirishdir. Shu ma'noda Kant qasddan qilingan harakatning oqibatlaridan odamning yaxshi niyatli yoki uning yo'qligini aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi; beayb shaxsga zarar yetkazish maqsadida qilingan harakat tasodifan yaxshi oqibatlarga olib kelishi mumkin, yomon oqibat esa asosli harakat natijasida yuzaga kelishi mumkin yoki kelmasligi mumkin. Uning fikricha, inson "axloqiy qonunni hurmat qilish uchun harakat qilganda" yaxshi irodaga ega bo'ladi. Odamlar qonun oldida ma'naviy hurmat uchun haqqini talab qilishi har tomonlama maqtovg'a loyiq. Demak, chindan ham o'z-o'zidan yaxshi bo'lgan qobiliyat bu iroda, irodaga tayanib esa his tuyg'ular biror amalni tanlaganda yaxshilik bo'ladi. U hurmatni "o'zimni sevishimga to'sqinlik qilmaydigan qadriyat tushunchasi" deb ta'riflaydi.

Kantning muhim qat'iy imperativlariga ko'ra, har qanday aql-idrok umuminsoniy maqsadlar doirasida doimo o'zining qonun chiqaruvchisi sifatida harakat qilishi kerak.

Kantning ta'kidlashicha, yagona yaxshi narsa - bu yaxshi maqsad, shuning uchun harakatning axloqiy to'g'riligini belgilovchi omil - bu uni amalga oshiruvchining irodasidir. Agar u maksima (yuksak darajadagi ezgulik) bilan harakat qilsa, masalan: "Men yolg'on gapirmayman" deb, vijdonan shunga amal qilsa, uning xatti-harakatlari atrofida uchun noto'g'ridek tuyulsa ham, oxir oqibat yaxshi natijalarga olib keladi. Yolg'on gapirish har doim boshqalarni xafa qiladi. Agar ba'zi odamlar buni qilsa, ular bilsinlarki butun insoniyatga zarar keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, Kant axloqiy qarashlari quyidagi axloq namunalarini shakllantirishga yordam beradi, deb ta'kidlash mumkin.

Pragmatik axloq – ijtimoiy islohotlarning axloqiy jihatdan to'g'ri rivojlanishni nazarda tutadigan ilmiy bilimlardan iborat.

G'amxo'rlik axloqi – g'amxo'rlik etikasi an'anaviy ravishda ijobiy fazilatlar va qadriyatlarni o'z ichiga olishga intiladi. Bu qadriyatlar empatik munosabatlar va rahmshafqatga asoslanadi.

Oila axloqi – oilaviy rollarga asoslangan axloq bo'lib, izchil taraqqiyot etikasi bo'lib, rol etikasi individualistik emas, jamoaviydir. Bu axloq insonning o'z oilasi bilan yaxshi munosabatidan kelib chiqadi. Oila a'zolari uchun birdek hurmat yoshi ulug'larga esa alohida hurmat. Yuksak samaraga erishish uchun o'z oilaviy rollarini yaxshi bajarish bilan belgilanadi. Bunda axloq shaxsning ota-ona yoki farzand rolini yaxshi bajarishi orqali aniqlanadi.

Demak, Sharq axloqiy olamining ulug' mutafakkiri G'azzoliy insonparvarlik, ilmsevarlik, bag'rikenglik va h. fazilatlarini o'rtacha bo'lish – relyativizm nuqtai

nazaridan yoritilgan bo'lsa, G'arbda esa Kant absolyutizm nuqtai nazaridan yondoshgan. Ularni qat'iy imperativlar shaklida taqdim qilib, u bilan bog'liq muammolarga turli yechimlar taklif bergan. Immanuil Kant bilan bir qatorda Abu Homid G'azzoliyning axloqiy-estetik ta'limoti O'zbekiston yoshlari tomonidan inson qadrini, inson tabiatini chuqur anglash uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, ko'p hollarda ularning nazariyalari insonning tafakkuri, uning axloqini tushunishi natijasida vujudga kelgan qarashlar bo'lsa, ikkinchi tomondan diniy tushunchalarga, ilohiy qonunlarga asoslangan axloqda o'z aksini topgan.

Insoniyat hayotidagi aksariyat muammolar axloqiy asosga ega, shu nuqtayi nazardan etika va estetika fanlari doirasidagi olib borilayotgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. G'arbda etika - bu axloqiy jihatdan nima yaxshi va yomon, nima to'g'ri va noto'g'ri ekanligini o'rganishdir⁴². Sharqda "axloq" arab tilidan, ma'g'ruf (tasdiqlangan), to'g'ri, adolatli va taqvodor so'zlarga nisbatlanadi. G'azzoliyda yaxshi amallar "salihat" ham deyiladi.

Ta'kidlash lozimki, axloqning o'ziga xosligi shundaki, unda barcha fazilat va illatlar zamon va makonga qarab o'zgarib turadi. Turli madaniyat va jamiyatlarda axloqiy tamoyillarning o'zgarishi tabiiy. Ma'lumki, turli davlatlar va jamiyatlarda turli xil axloqiy kodekslar amal qilib kelgan. Bir jamiyatning ma'naviy mavqeini boshqasidan yuqori yoki quyi deb baholash mumkin bo'lgan aniq mezonlar mavjud emas. Axloqning aniq chegarasi yo'q, jamiyat tadrijiy taraqqiyotini bir xil mezon asosida baholash qanchalik notog'ri bo'lsa, axloqiy taraqqiyotni ham.

Axloqiy nazariyalar har bir mamlakat va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim. U jamiyatning har bir a'zosi rioya qilishi kerak bo'lgan daxlsiz qadriyatdir. Ta'kidlash lozimki, o'g'rilik, poraxo'rlik, qotillik va h. kabi jinoyatlar uchun huquqiy normalar amal qilganidek, bulardanda zararliroq axloqsizliklar: munofiqlik, riyokorlik, shuxratparastlik, kibr, oddiygina ko'ringan ochko'zlik, halol bilan haromning farqiga bormaslik uchun ham huquqiy-me'yyoriy chora ko'rilganda edi jamiyat va insoniyat taraqqiyoti anchayin yuksak bo'lar edi.

Musulmon sharqida inson ko'pincha o'z irodasi va afzalliklarga ko'ra nima to'g'ri va nima noto'g'ri ekanligini hal qilishda zaiflik mavjud. Shuning uchun musulmonlar o'z harakatlarini Allohning kalomidan kelib chiqib asoslaydilar. Jumladan, G'azzoliyning Ilohiy amr yoki vahiy nazariyasi to'g'ri va noto'g'rining tabiati diniy e'tiqodga asoslangan, ularning manbai Muqaddas Qur'oni Karim kontekstida jam ekanligini ta'kidlaydi. Bu nazariyaga ko'ra, muayyan bir amal Xudoning amriga asoslanganligi uchun axloqiy jihatdan "to'g'ri" deb ta'riflangan bo'lsa, axloqiy jihatdan "noto'g'ri" esa Xudo ruxsat bermaganligi bilan bog'liq. Boshqacha aytganda, G'azzoliy fikricha, axloq va din doimo yonma-yon yuradi. Ammo, ba'zi tadqiqotchilar buning universal ta'limot bo'lolmasligini, ya'ni maqsadni anglash bilan bog'liq ba'zi qiyinchiliklar bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi. Masalan, ateistlar Xudoga ishonmaydilar, demak bu nazariyani umuman qabul qilmaydilar. Boshqa dinlar vakillari uchun esa bu nazariyaning o'ziga xos etiologik ziddiyatlari bor. Aslini olganda, G'azzoliy Kant kabi universal ta'limot yaratish maqsadini o'z oldiga qo'ymagan edi. Alloh buyurganidan keyin,

⁴² Apresyan va A.A. Guseinov. Etika.- M.: Gardariki, 2001.- B. 9.

insonga buyurilgani to'g'rimi, noto'g'rimi uni o'ylashga o'rin ham yo'q! – deb hisoblagan, uning maksimasi – axloqiy ta'limotining bosh tamoyili, shu.

Darhaqiqat, Islom dini inson hayotining maqsadini aniq belgilab bergan. Inson yaxshi amallar orqali Allohga ibodat qilish va yomon ishlardan saqlanmoq uchun yaratilgan (Qur'on 51:56). Shunga ko'ra, musulmonlar uchun nima to'g'ri, nima noto'g'ri ekanligi Alloh taoloning kalomi va payg'ambarning sunnatlari orqali ma'lum bo'ladi. Musulmonlar bu ikki muhim manbaga asoslanib, Yaratgan va Payg'ambar buyurgan narsalar haq ekanliklariga ishonadilar.

